O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tarix-geografiya fakulteti
Tarix o`qitish metodikasi kafedrası
5110600 – Tarix o`qitish metodikasi
yunalishi 4 b-kurs talabası

Nurjovov Shodiyor Baxodir o`g`lining

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: O'zbekiston tarixi fanidan «Anushtakin xorazmshohlar davlati (XI-XIII asr boshi)» mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish**

Talaba: ________________ Sh. Nurjovov

Ilmiy rahbar: ________________ t.f.n, docent. B. Turganov

Kafedra mudiri: ________________ t.f.n. A. Saribaev

Kafedranıng 2019-yıl ____-maydagı majlisi qarorı bilan himoyoga ruxsat berildi (__ -sonlı protokol)

**Nókis - 2019**

Bitiruvchi talaba Nurjovov Shodiyor Baxodir o`g`lining « O'zbekiston tarixi fanidan «Anushtakin xorazmshohlar davlati (XI-XIII asr boshi)» mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish» mavzusidagi bakalavr bitiruv malakaviy ishi "Tarix o`qitigsh metodikasi" kafedrasining 2019 yil «____» ____________ kungi _____-sonli bayonnomasi asosida davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga yuborish tavsiya etildi.

**Tarix o`qitish metodikasi kafedrasi mudiri: A.Sarıbaev**

Bitiruvchi talaba Nurjovov Shodiyor Baxodir o`g`lining « O'zbekiston tarixi fanidan «Anushtakin xorazmshohlar davlati (XI-XIII asr boshi)» mavzusidagi bakalavr bitiruv malakaviy ishi 2019 yil «____» ____________ kungi institut rektorining _____-sonli buyrug`i asosida davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga yuborildi.

Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan Nurjovov Shodiyor Baxodir o`g`lining bakalavr bitiruv malakaviy ishiga ______ ball quyildi.

# O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN «ANUSHTAKIN XORAZMSHOHLAR DAVLATI (XI-XIII ASR BOSHI)» MAVZUSINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Kirish**……………………………………………………………….....4

**I-BOB: Anushtakin xorazmshohlar davlati (XI-XIII asrlar boshi)**..........................................................................................11

1.1. Xorazm davlati va uning yuksalishi …………………………..11

1.2. Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari keskinlashuvi. Anushtakin xorazmshohlar davlati inqirozi………………………..17

1.3. Jaloliddin Manguberdi mohir sarkarda va Vatan qahramoni.....20

1.4. Anushtakin xorazmshohlar davlatida madaniy-iqtisodiy hayot. Ilm-fan, ta`lim. Me`morchilik va hunarmandchilik.........................29

**II-BOB: «Anushtakin xorazmshohlar davlati (XI-XIII asr boshi)» mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish:**…......................................................................……41

2.1. «O'zbekiston tarixi» fanini o`rganishda pedagogik texnologiyadan foydalanish…….....................................................41

2.2. Anushtakin xorazmshohlar davlati (XI-XIII asr boshi) mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyadan foydalanish....................... 45

2.3. «Anushtakin xorazmshohlar davlati (XI-XIII asr boshi)» mavzusi boyicha ko`rgazmali qurollar............................................79

**Xulosa**………………………………………………...………...86

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**……………………………..88

# Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Jahon miqyosida hozirgi davr globallashuv jarayonlari sharoitida ta'lim sohasini rivojlantirish, tarixiy-madaniy merosni saqlash, tarixda namoyon bo'lgan bunyodkorlik an'analarini o'rganish va yangi asoslarda davom ettirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'z xalqi tarixini bilish va o'zga xalqlar o'tmishi va madaniyatiga hurmat bilan qarash mintaqaviy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida keng miqyosda o'zaro hamkorlikning chuqurlashuviga mustahkam poydevor yaratadi. Shu bois davlatchilik tariximizda o'z o'rni va muhim ahamiyatga ega bo'lgan "Anushtakin Xorazmshohlar davlati" tarixini o'rganishga murojaat etish o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Jahonning etakchi ilmiy muassasalari tomonidan Markaziy Osiyoning Marg`iyona, Baqtriya, Sug`d, Choch va Farg`ona tarixiy-madaniy viloyatlari singari qadimgi Xorazmning moddiy va ma'naviy madaniyati, ilk davlatchilik va jamiyat boshqaruvi tizimi kabi masalalar o'rganilmoqda. Biroq bu sohada "Anushtakin Xorazmshohlar davlati"ning o'zbek davlatchilik tarixidagi o'rni, unga bog`liq ilmiy muammolar etarli darajada o'rganilmagan. Bu esa o'rta asr Xorazm tsivilizatsiyasi tarixini yangi asoslarda o'rganishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugun mamlakatimiz taraqqiyotining yangi yo'lida fan va ta'lim sohalariga innovatsiya g`oyalarni tatbiq etish zarurati 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida ham o'z aksini topgan. «Yangi jamiyat qurilishi jaroyonida xalqimizning tarixida boy madaniyat va bunyodkorlik an'analarini o'rganish va ulardan foydalanish katta ahamiyatga ega»[1]. O'zbekiston tarixi Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismidir. Bu borada Anushtakin xorazmshohlar hukmronligi davridagi Xorazm tsivilizatsiyasining o'rni ham muhim ahamiyatga molik. Mazkur tsivilizatsiyaning tarixiy ildizlarini

[1]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон фармонининг 1-иловасида келтирилган «2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси». [Электрон ресурс]. http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/.

yangi ilmiy ma'lumotlar asosida tadqiq etish, etarli darajada o'rganilmagan muammolarni ko'rib chiqish va umumlashtirilgan holda xulosalar chiqarish, qadimgi Xorazmning mintaqa tsivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan xissasining ko'lami, uning ahamiyatini chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustivor yo‘nalishiga aylandi.

O‘zbekistonning kelajagi, uning istiqboli, birinchi navbatda yoshlar tarbiyasiga, ularni sog‘lom qilib o‘stirishga, milliy g‘oya, milliy mafkura va o‘z vataniga sadoqat ruhida tarbiyalashga bog‘liq bo‘lib, bu murakkab jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish mustaqil mamlakatning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimovning “Mamlakatimizning istiqboli yosh avlodlarimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo‘lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotga nechog‘lik faol munosabati bo‘lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog‘liq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak” deb ta’kidlagani bejiz emas. Shu boisdan ham bugungi kunda yoshlarning ta’lim-tarbiyasi mustaqil O‘zbekistonning davlat siyosatida ustivor ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda oliy ta’lim muasasalarida O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda zamonovaiy pedogogik texnologiyalarni qo‘llanilishini o‘rganish va tahlil etish o‘ta dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarining ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda quyidagi: ta’lim to‘g‘risidagi qonun xujjatlari, qonun osti xujjatlari jumladan farmonlar, farmoyishlar, qarorlar va buyruqlar kabi tashkiliy huquqiy xujjatlar qo‘llanilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan normativ xujjatlar bilan amalga kiritilgan o‘quv dasturi, O‘zbekiston tarixi fanining nazariy va amaliy muammolari, O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishdagi innovatsiyalar, o‘quv dasturi, ma’ruza matnlari, O‘zbekiston tarixi fanidan tayyorlanayotgan keyslar, amaliy

topshiriqlar, nazorat savollari shu kunga qadar oliy ta’lim muasasalari professor-o‘qituvchilari tomonidan lozim darajada o‘rganilmagan.

Bu holatlar O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda zamonaviy pedogogik va informatsion texnologiyalardan samarali foydalanish masalasini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Respublikamizda mustaqillik yillarida umumiy o`rta ta`lim maktablarida ta`lim sohasida, o`qitishni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish hozirgi jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqmoqda. Hozirgi davr ta`lim berish jaroyonini quyidagi asosiy jihatlar bilan ifodalash mumkin:

- o`qituvchining faoliyati nafaqat ilmiy-amaliy, balki ijodiy-artislik asosda ham amalga oshirilishi lozim;

- o`qituvchining dars berish jatumanidagi roli ancha murakkab bo`lib, uning o`ziga xos tarixiy va zamonaviy jihatlari mavjud. Oldingi davrlarda o`qituvchilarning faqatgina zamonaviy bilimlar berishi talab qilinsa, hozirda ulardan tarbiyaviy, madaniy-ma`naviy, siyosiy va amaliy bilimlar berish ham talab qilinadi;

- hozirgi paytda ko`pchilik o`quvchilar bilim darajasi bir-biridan anchagina farq qilishini hisobga olganda, o`qituvchilarning ishi yanada murakkablashadi – endi ular avvalgidan farqli o`laroq, turli xil bilim darajasi va turli amaliy ko`nikmalarga ega bo`lgan o`quvchilar jamoasida ishlashlariga to`g`ri keladi. Bu esa ulardan ta`lim berishda yangi usul va uslubiyatlar qo`llanishini taqozo qiladi;

- o`qituvchilarga bo`lgan talab ham sezilarli darajada oshdi va endi ular nafaqat ilmiy, balki ma`rifiy va amaliy bilimlarni ham puxta egallashlari zarur;

- ilm, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va tex-nologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo`llanilishi o`qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda;

- o`qituvchilarning faoliyati ko`p qirrali bo`lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo`naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga

oshirishlari kerak bo`ladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Rus olimi V.V.Bartoldning "Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya", "K voprosu o Chingizidax-xristianax", "Istoriya kulturnoy jizni Turkestana", "Obrazovanie imperii CHingizxana" kabi asarlarida ilk bor Xorazmshohlar - anushteginiylar sulolasi tarixini manbalar asosida, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga e'tibor berilgan holda yoritadi[1]. Xorazmda davlatchilik masalasiga professor S.P. Tolstov ham katta ahamiyat bergan. Jumladan, u "Drevniy Xorezm", "Po sledam drevnexorezmiyskoy tsivilizatsii" va "Po drevnim deltam Oksa i Yaksarta" asarlarida Xorazmshohlar haqida to 'xtalib o 'tadi[2].

I.Jabborovning "Buyuk Xorazmshohlar davlati" risolasida bir necha ming yillar davomida o 'z qudrati va tarixiy voqealarga boyligi tarix sahifalarini to 'ldirib kelgan xorazmliklarning uzoq o 'tmishidan Buyuk Xorazmshohlar davrigacha rivojlanib kelgan qadimiy davlat va uning madaniyati tarixi to 'g'risida hikoya qilinadi. Asar ko'psonli tarixiy, arxeologik, etnografik adabiyot va manbalar asosida yozilgan[3].

Ushbu mavzuga bag'ishlangan asosiy tadqiqotlardan biri - bu Ziya Buniyatovning "Anushtagin - Xorazmshohlar davlati" (1097-1231) asaridir[4]. Kitob Markaziy Osiyo xalqlarining 140 yillik davrini qamrab oladi.

**Bitiruv malakaviy ishining manbaviy asoslari.** Ibn al-Asirning "Al-komil fi-t-tarix" ("Mufassal tarix") asari, Yoqut al-Hamaviyning "Mu'jam al-buldon"(Mamlakatlar qomusi) asari, Rashiduddin ibn Fazlulloh ibn Imodud davla Abulxayr al-Hamadoniy (1247-1318)ning jahon tarixini o 'z ichiga olgan "Jome' at-tavorix" ("Tarixlar majmuasi") asari, SHihobiddin Muhammad Nasaviyning "Sirat as-sulton Jaloliddin Manguberdi" ("Sulton Jaloliddin

---

[1]Бартольд В.В. К вопросу о Чингизидах-христианах. Соч.., Т. II.4. 2. 1964. - С. 417-418; Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Соч.., Т. II. ч. 2.1964. - С. 380-387; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. СПб., 1963. Соч..2, Т. II. – 575 с.

[2] Толстов С.П. Древний Хорезм. -М. -Л ., 1948; Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. -М. -Л ., 1948; Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. — М., 1962.

[3] Жабборов И. Буюк Хоразмшохлар давлати (Кадимий тарих сахифалари). -Тошкент.: Шарк. 1999.

[4] Буниёдов З Ануштагин - Хоразмшохлар давлати (1097-1231) (Ахмад Ашраф ва Маркам Махмуд таржимаси). -Тошкент.: F.Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1998.

Manguberdining tarjimai holi”) asari, Alouddin Otamalik Juvayniyning “Tarixi Jahonkushoy” (“Jahongir (Chingizxon) tarixi”) asari, Hamdulloh Qazviniy (ibn Abu Bakr ibn Ahmad ibn Nasr Mustavfiy (1281-1350)ning “Tarixi guzida” (“ Saylangan tarix”) asarlarida XI–XIII asr boshlarida markazlashgan xorazmshohlar-Anushteginiylar davlatining vujudga kelishi, O`rta Osiyoda siyosiy barqororlikning ta`minlanishdagi o`rni, vohadagi hunarmandchilik va savdo-sotiq to`g`risuda qiziqarli ma`lumotlar beradi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:** Birinchidan, ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan “O‘zbekiston tarixi” fani taraqqiyotining ustivor yo‘nalishlaridan biri bolgan davlatchilik tarixini nazariy va amaliy tahlil qilish;

Ikkinchidan, “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish yo‘llarini yoritish;

Uchinchidan, “O‘zbekiston tarixi” fani o‘quv dasturidagi «Anushtakin xorazmshohlar davlati (XI-XIII asr boshi)» mavzusining mazmun-mohiyatini ochib berish;

To‘rtinchidan, oliy ta’lim muassasalarida “O‘zbekiston tarixi” fanidan «Anushtakin xorazmshohlar davlati (XI-XIII asr boshi)» mavzusini o‘qitishni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Mavzuning tadqiqot ob`ekti:** “O‘zbekiston tarixi” darsida «Anushtakin xorazmshohlar davlati (XI-XIII asr boshi)» mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalarni qo`llash jaroyoni va mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalarni qo`llashning mazmuni, shakl va usullari.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:**

- O`zbekiston tarixi darslarida interfaol metodlarni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash;
- o`qitish jarayonida pedagogik texnologiya usullarining o`rni va ahamiyatini tushuntirish hamda o`qitishni zamonaviy tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasidagi tajribalarni o`rganish;
- mutaxassislik fanlarini o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari:**

O`zbekiston Respublikasi uzluksiz ta`lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi me`yoriy hujjatlar, xususan, 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev tomonidan ta`lim sohasini rivojlantirish haqida ilgari surilgan g`oyalar, O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar, O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan qabul qilingan me`yoriy hujjatlardan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi:** Pedagogik texnoliyalar va interfaol metodlar asosida zamonaviy o`qitishning samaradorligi quyidagi holatlarda yuqori bo`lishi mumkin, agarda:

- interfaol metodlar asosida zamonaviy o`qitishni muayyan tizimga ega bo`lgan mazmun, shakl va metodlari ishlab chiqilsa;
- o`qitishni tashkil etish jarayonida interfaol metodlardan keng qo`llanilsa va o`qitishning pedagogik shart-sharoitlari inobatga olinib, ko`rgazmali va ko`rsatmali qurollardan foydalanishga erishilsa;
- interfaol metodlarni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlariga yo`naltirilgan pedagogik jarayon muayyan ilmiy-pedagogik tavsiyalarga tayangan holda tashkil etilsa, darslarda interfaol metodlarni qo`llash jatumani samarali bo`ladi.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:** Tarixni o`qitish va o`rganishga yangicha yondoshish, interfaol metodlarni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari dolzarb pedagogik muammo sifatida amaliy jihatdan asoslandi.

2. Interfaol metodlarni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlariga yo`naltirilgan darslarning samaradorlik darajasi aniqlandi va o`quvchilarda interfaol metodlarni qo`llashga yo`naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. Bitiruv malakaviy ishida XI-XIII asr boshidagi Xorazmshohlar davlati tarixi har tomonlama o ’rganildi, shu davrlar yozma manbalari asosida tahlil etilib,

mavzuga oid tarixiy asarlar nuqtai-nazaridan tadqiqot doirasiga tortildi, muhim xulosalar va natijalarga kelindi.

**Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati:** Bitiruv malakaviy ishida XI-XIII asr boshidagi Xorazmshohlar davlatchilik tarixining turli jihatlari har tamonlama o'rganildi, nazariy xulosalar, ilmiy natijalar olindi va pedagogik texnologiyalar asosida darslarning namunaviy ishlanmalari ishlab chiqildi. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan faktlar, pedagogik texnologiyalar asosida darslarning namunaviy ishlanmalari, ilmiy umumlashma va xulosalardan Oliy o'quv yurtlarida va maktablarda O'zbekiston tarixi fanidan hamda o'lkashunoslik to 'garaklarida metodikalik ko`rsatma sifatida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi:** kirish, 2 bob, 7 paragraf, ko`rgazmali qurollar, xulosa va  foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

# I-BOB: ANUSHTAKIN XORAZMSHOHLAR DAVLATI
# (XI-XIII asr boshi)
## 1.1. Xorazm davlati va uning yuksalishi.

Xorazm Somoniylar davrida ularga tobe viloyat hisoblanardi. X asr oxiri – XI asrning boshlariga kelib Xorazm hukmdori Ma`mun I va uning o`g`li Ali ibn Ma`mun Somoniylar davlati qwlaganidan so`ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib ko`rdilar. Xususan, 995 yilda Shimoliy Xorazm hukmdori Ma`mun ibn Muhammad ikki qismga bo`linib ketgan davlatni birlashtirib **xorazmshoh unvoni** oladi va Urganchni o`z poytaxtiga aylantiradi. Ammo, Movarounnahrdagi Qoraxoniylar va Xurosondagi G`aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bolib, ko`p hollarda Mahmud G`aznaviy va uning o`g`li Ma`sudga qaram edi. Xorazmning mustaqil davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishi Anushteginiy-Xorazmshohlar sulolasi davriga twg`ri keladi.

Ushbu sulolaning asoschisi yoki birinchi vakili Anushtegin kelib chiqishi jihatidan og`uz turklaridan bolib, yoshligida Garjiston (Gurjiston) da yashagan va yollanma jangchi (mamluk) bo`lgan. Saljuq sultoni Malikshoh I davrida Anushtegin tashtdorlik mansabiga (sulton hovuzlari va hammomlari ashyolari xazinachisi) kotarilgan edi. Manbalarning ma`lumot berishicha, tashtdorlik mansabiga sulton o`zining ishonchli odamlarini tayinlar edi va ko`p o`tmay Anushtegin sultonning yaqinlaridan biriga aylanadi. Natijada 1076 yilda Sulton Malikshoh Anushteginni Xorazm hokimi etib tayinlaydi. Anushtegin Saljuqiylarga tobe bolib hokimiyatni boshqaradi va 1097 yilda vafot etadi. O`sha yili uning og`li Qutbiddin Muhammad (1097-1128) Xorazm voliysi qilib tayinlanadi.

Qutbiddin Muhammad otasi davrida o`z davrining yirik shaharlaridan biri bo`lgan Marvda ilm olgan, xususan, din ilmlarini yaxshi o`rgangan edi. U Xorazm voliysi bo`lgach qobiliyatli hukmdor sifatida ulamolarga va din arboblariga homiylik qiladi. Qutbiddin Muhammad Xorazmda o`z mavqeini mustahkamlash uchun anchagina kuch-g`ayrat sarflagan bolsada, rasman Saljuqiylarga tobe bo`lgani bois, Sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qildi. U

Saljuqiylarning oliy hokimiyat uchun o`zaro kurashlarida ham faol ishtirok etganligi ma`lum. Tarixiy manbalarda Xorazmshohning unvoni **«Podshoh Qutbid-dunyo vad-din Abul-fath Mu`in Amiral-mw`minin» («Dunyo va din qutbi, g`alabalar otasi Mo`minlar amiri-xalifaning yordamchisi»)** deb ulug`lanishi Qutbiddin Muhammad Saljuqiylarga tobe bolsa-da, mavqei ancha baland bo`lganligidan dalolat beradi. Shu sababli bolsa kerakki, 1128 yilda Qutbiddin vafot etgach Sulton Sanjar Xorazm taxtini uning og`li Aloviddin Otsizga (to`liq nomi Al-Malik Abu Muzaffar Aloviddin Jaloliddin Otsiz; 1128-1156 yy) topshiradi.

O`z davrining mohir sarkardasi va yaxshigina diplomati bo`lgan Otsiz mustaqil tashqi siyosat olib borishga harakat qilib Saljuqiylarning har bir xatosidan ustalik bilan foydalandi. Otsiz birinchi marta Sulton Sanjarning itoatidan chiqib mustaqil harakat qildi va Saljuqiylarga tegishli bo`lgan Sirdaryoning quyi oqimidagi erlarni Jandgacha (Kaspiy dengizi boylarigacha) bosib olib, Mang`ishloq viloyatini ham o`ziga boysindirdi. Bundan g`azablangan Sulton Sanjar Otsizga qarshi yurish qilishga qaror qildi. Chunki o`sha davr siyosatini yaxshi tushungan Sanjar, agar Otsizni buysundirmasa o`ziga tobe bo`lgan Qoraxoniylar va G`aznaviylar ham isyon ko`tarishini bilardi. Shuningdek u, o`zining harbiy qudrati g`oyat kuchli ekanligini ham bilardi. Bularni hisobga olib Sulton Sanjar 1138 yilning oktyabrda Otsizga qarshi Xorazmga qo`shin tortdi va Xazorasp qal`asini qamal qildi. Sulton Sanjar Xorazmga jiyani Sulaymonshohni voliy qilib tayinladi. Ammo, ko`p o`tmay, 1139 yil fevralda Sulton Sanjar Marvga qaytgach, Otsiz o`z qo`shinlari bilan Xorazmga kelib Sulaymonshohni haydab yuborib qayta taxtni egalladi.

Aloviddin Otsiz Xorazmni mustaqil boshqarish maqsadida bir necha marta Sulton Sanjarga qarshi (1138, 1141-1142, 1147-1148 yy) isyonlar qilgan bolsa-da, butunlay mustaqil bo`lish unga nasib etmadi. Shunga qaramasdan, ko`pchilik olimlarning e`tirof etishlaricha, u Xorazmni mustaqil davlat bo`lishi uchun asos yarata oldi. Ya`ni, Otsiz Anushtegin-Xorazmshohlar sulolasi nafaqat bir viloyat, balki ulkan mintaqada ham siyosat yurgizishi va dongdor siyosiy

kuchlar bilan raqobatlasha olishi mumkinligini amalga ko`rsata oldi. Chunki Otsizning asosiy maqsadi va siyosatining asosi Xorazmda o`z hokimiyatini mustahkamlash edi. O`zining uzoq yillik humronligi davrida (u 29 yil davlatni boshqargan) Otsiz Bag`dod xalifalari bilan aloqalarini mustahkamlashga intilib, Sulton Sanjarga qarshi kurashda Bag`dod xalifasini ittifoqchi qilishga ham harakat qilib ko`rdi.

1156 yilda Otsiz qoqshol kasaliga uchrab vafot etadi va taxtga uning o`g`li Elarslon (1156-1172 yy.) taxtga otiradi. Elarslon otasiga qaraganda ancha qulay vaziyatda taxtni boshqardi. Chunki 1157 yilda Sulton Sanjar vafot etganidan so`ng Saljuqiylar davlati mayda viloyatlarga bo`linib ketdi va Xorazmni mustaqil siyosat olib borishi chun keng yol ochildi. Elarslon Xurosondagi Saljuqiylarning o`zaro kurashlaridan foydalanib Kaspiy boylaridagi Dehistonni bosib oldi. Shuningdek u, otasi davrida Xorazmga boysindirilgan ko`chmanchi turkman va qipchoq qabilalari yordamida Movarounnahrning ichki ishlariga ham tez-tez aralasha boshlaydi. 1158 yilda u katta qo`shin bilan Movarounnahrga bostirib keldi. Bu vaqtda qoraxitoylarga vassal bo`lgan qoraxoniylar ko`chmanchi qarluq qabilalari bilan jang olib borayotgan edi. Elarslon qarluqlarga Buxoro va Samarqand uchun olib borilgan janglarida yordan beradi. Lekin qoraxitoylar qo`shinlari yordamga etib kelishi bilan Elarslon Xorazmga qaytishga majbur bo`ldi. U bir necha marotaba Xorazmga yurish qilgan bolsa-da, muvaffaqiyatga erisha olmadi.

1171-1172 yillarda qoraxitoylarning katta qo`shini Xorazmshohning o`lponni o`z vaqtida to`lamayotganligini bahona qilib Xorazm ustiga yurish qiladi. Elarslonning buyrug`i bilan Sirdaryodagi katta tog`onlar ochtirilib, Xorazm poytaxti yaqinidagi yollar suvga bostirildi. Bu qoraxoniylar qo`shini yurishini qiyinlashtirdi va Xorazmning poytaxti Gurganj (Urganch) talon-taroj qilishdan saqlab qolindi. Ammo, qoraxitoylarning bu yurishi davrida Elarslon kasallikdan vafot etdi (1172 y). Shundan so`ng uning o`g`illari Aloviddin Takash va Sultonshoh Mahmud ortasida uzoq yillar toj-taxt uchun kurash boradi. Aloviddin Takash 1172 yilning dekabrida qoraxitoylar malikasi Chen

Tiyon yordamida rasman taxtga o`tirgan bolsa-da, aka-ukalar ortasida kurash davom etdi. Chunonchi, 1174 yilda Sultonshoh Mahmudning onasi Turkon xotun Nishopur hukmdori Oy-Aboga qimmatli sovg`alar yuborib, Takashga qarshi ittifoq taklif qildi. O`sha yili Gurganjdan 20 farsah uzoqlikdagi Subvurni shahri ostonasida Oy-Abo qo`shinlari Alovuddin Takash qo`shinlari bilan to`qnashdi. Bu jangda Takashning qo`li baland kelib, Oy-Abo asir olindi va qatl etildi. Turkon xotun va Sultonshoh Kaspiy dengizining sharqiy sohilidagi Dehistonga qochdilar.

Shundan so`ng Aloviddin Takash Xorazmda mustahkam o`rnashib, qoraxitoylarga va`da bergan o`lponni to`lashdan bosh tortadi. Bunga javoban qoraxitoylar yana Xorazmga yurish qildilar, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Sultonshoh ixtiyoriga kichik bir qo`shin qoldirib o`zlari orqaga qaytadilar. Bu davrga kelib Xurosonning anchagina qismi Xorazm davlatiga qo`shilgan bolsa-da, Marv va uning atroflarda, Sabzavorda Sultonshoh Mahmud hukmronlik qilardi. 1187 yilda aka-ukalar ortasida Nishopur ostonasida yana to`qnashuv bolib, Takash g`olib bo`ldi. Sultonshoh Marvga chekinishga majbur bo`ldi.

1188 yilda Xurosonning ulamolari va taniqli amirlari vositachiligida Sultonshoh bilan Takash ortasida sulh bitimi tuzildi. Bu paytga kelib Takashning harbiy qudrati va obrwsi oshib ketgan bolib, Sultonshoh uning barcha shartlarini qabul qilishga majbur edi. Ammo, bu uzoqqa cho`zilmay Sultonshoh G`o`r viloyati hukmdorlarini akasiga qarshi kurashda o`ziga ittifoqchi qilib oldi. 1193 yilning bahorida Takash yana Sultonshohga qarshi yurish boshladi. Xorazmshoh qo`shinlari Obivardga etganida har ikala tomonning vakillari bo`lgan ulamo va din arboblari aka-ukalarni yana yarashtirib qoyish uchun muzokaralar boshladilar. Bu orada Saraxs qal`asining boshlig`i Badriddin Chaqir xorazmshoh Takash tomonga o`tib ketib, qal`a kaliti va Sultonshohning barcha xazinalarini unga topshirdi. Bu voqealarni ko`tara olmagan Sultonshoh 1193 yilning ko`zida vafot etdi. Shu tariqa xorazmshoh Elarslonning ikki o`g`li ortasida 20 yildan ziyodroq davom etgan kurashga yakun yasaldi.

Xorazmshoh Takash 1193 yilning dekabrida Marv shahrini fath etib,

shahar va uning atroflariga katta wg`li Nosiriddin Malikshohni voliy etib tayinladi. Bag`dod xalifasi Nasr (1180-1225 yy) va G`arbiy Saljuqiylar sultoni Tog`rul II ortasidagi nizolardan foydalanib, Takash qo`shinlari 1194 yilning mart oyida Tog`rul II ga qarshi urush ochdi va uni mag`lub etib Hamadon shahrini egalladi.

Xorazmshohning tobora kuchayib borayotganligidan xavfsiragan xalifa Nasr qo`shinlari Takashga qarshi chiqdilar. 1196 yilning iyun oyida Takash qo`shinlari xalifa qo`shinlarini engdi. Shu tariqa Afg`oniston va Eronning katta qismi Xorazmshohlar qo`liga o`tdi va Xorazm davlati hududlari birdaniga ikki baravar kengaydi. Xorazm davlati endi Bag`dod xalifasiga tegishli joylar va G`uriylar bilan chegaradosh bolib qoldi. Ammo, ko`p o`tmasdan xalifa Nasr bilan Takash munosabatlari yana yomonlashganligi tufayli Xorazmshoh İroqi Arab va xalifalik poytaxti Bag`dodni bosib olishga qaror qildi. Lekin bu yurish paytida Takash kasallanib, 1200 yil iyul oyida Xorazm bilan Nishopur orasidagi Shahriston shahrida vafot etdi.

Orta asrlar mualliflari ma`lumotlari asosida tadqiqotlar olib borgan Z.Buniyodovning xulosalariga ko`ra, xorazmshoh Takash o`z fuqarolariga nisbatan adolatli bo`lgan. U boshqa sultonlarga nisbatan qobiliyatli, yirik diplomat va zukko lashkarboshi edi. Shu bois bolsa kerakki, Xorazmshoh – Anushteginlar davlatining nisbatan kuchayishi, Aloviddin Takash faoliyatining ma`muriy idora boshqaruvi o`zining qat`iyatligi va tartib intizomi bilan ajralib turadi. Lekin Takashning katta xatosi shunda ediki, u o`zining xotini Turkon xotun mansub bo`lgan qipchoqlar qabilasiga katta erkinliklar berdi, ularni doimo qo`llab-quvvatladi. Turkon xotun (Uning shaxsiy muhrida *«İsmat ud-Dunyo vad-Din Ulug` Turkon malika niso al-olamiyn», «Dunyo va uning pokdomoni, Ulug` Turkon, olam ayollarining malikasi»* degan yozuv bitilgan edi) ularga tayanib katta hokimiyatga ega bo`ldi, o`z homiyligidagi odamlarning yuqori lavozimlarni egallashini ta`minladi. Natijada bu alohida turk harbiy-feodal tabaqasi paydo bo`lishiga olib keldi va amalda xorazmshohlar davlatining inqiroziga sabab bo`ldi.

1200 yilning avgust oyida Xorazmshohlar taxtiga Takashning o`g`li Qutbiddin Muhammad o`tirdi (1200-1221 yy) va otasining Aloviddin laqabini qabul qildi. U taxtga o`tirishi bilanoq ayrim muammolarga duch kelgan bo`lsa-da, ularni zudlik bilan bartaraf etib, 1203 yilda qoraxitoylarning yordami bilan Xurosonni bosib oldi. Undan keyin esa Hirot va uning atroflarini egalladi.

Aloviddin Muhammad 1207 yilda Movarounnahrga yurish qilib, Buxorodagi Sanjar qo`zg`olonini bostirdi va Buxoroni egalladi. Xorazmshoh 1210 yilda qarluqlar bilan ittifoq to`zib qoraxitoylar ustiga yurish qildi. Bu yurish Xorazmshohning g`alabasi bilan tugadi va u qoraxitoylarning Weganddagi boy xazinasini qo`lga kiritdi. Umuman, Aloviddin Muhammad 1210 va 1212 yillarda qoraxitoylarga ikki marta qaqshatqich zarba berib ularni butunlar tor-mor etdi. Buning natijasida uning obro`yi oshib ketib ikkinchi İskandar, ikkinchi Sulton Sanjar laqablarini olishga musharraf bo`ldi. Aloviddin Muhammadning say`i-harakatlari tufayli 1217 yilga kelib butun Movarounnahr, Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo`lgan erlarda Xorazmshohlar hukmronligi ornatildi. Ammo, mamlakatning ichki siyosiy holati mustahkam emas edi. Bu holat mug`ul bosqini paytida yaqqol nomoyon bo`ldi.

Xullas, XIII asrning birinchi choragida Xorazmshoh Muhammadning harbiy va siyosiy uquvsizligi tufayli Horazmshohlar davlati inqirozga uchradi. Shunga qaramasdan o`zbek xalqi orta asrlar davri davlatchiligi tarixida Xorazmshohlar davlati muhim o`rin tutadi. O`z davrida Xorazm davlati Movarounnahr, Xuroson, Mozandaron, Kirmon, Fors İroqi, Ozarbayjon, Sijiston, G`azna va boshqa davlatlar hamma viloyatlarni o`z tarkibiga olgan edi. Xorazm saltanati XII asrning oxiri – XIII asrning boshlarida musulmon Sharqining eng yirik va qudratli davlati edi.

## 1.2. Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari keskinlashuvi. Anushtakin xorazmshohlar davlati inqirozi.

XII asr ortalariga kelib Baykal ko`li atrofi, hozirgi Mug`uliston hududlarida yashovchi turkiy va tungus-manjur qabilalarining ko`pchiligi Esugay Bahodir ta`siriga o`ta boshlaydilar. Egusay tatar va markit qabilalariga qarshi urushlar paytida 1185 yilda xoinona oldirilgandan so`ng tashabbus uning o`g`li Temuchin qo`liga o`tadi. Temuchvin 1186-1204 yillar davomida hokimiyat uchun kurash olib borib faqat mug`ullarnigina emas, ular bilan qo`shni bo`lgan tatar, markit, kerayit, jaloyir, nayman, uyg`ur, qorluq kabi ko`plab qabilalarni o`z qo`li ostida birlashtirib, kuchli davlatga asos soladi.

1206 yilning bahorida Mug`ulistondagi Onon daryosi irmoqlaridan birining sohilida o`z hokimiyatining to`liq mustahkamlab olgan Temuchin mug`ullarning umum qurultoyini chaqiradi. Temuchinning tarafdorlari – mug`ul zodagonlari to`plangan bu qurultoyda u oliy mug`ul hukmdori – xon deb tantanali e`lon qilinadi va davlatning bosh shamani Teb Tangriy unga "Chingizxon" degan faxriy nom beradi ("Chingizxon" – kuchli, buyuk degan ma`noni anglatadi).

Qurultoyda Chingizxon o`z tug`i – bayrog`ini ko`tarib, o`nta lavozimni joriy etadi va uni o`z yaqinlariga taqdim etadi. Sahrodagi Qoraqurum shahri yangi davlatning poytaxti qilib belgilanadi. Yangi mug`ul davlati – *Eke Mung`ol ulus ( Buyuk mug`ul davlati* ) deb atalib uning boshqaruvi *"Altan urug" (Oltin urug`)* qo`liga o`tdi.

O`z mavqei va hokimiyatini mustahkamlab olgan Chingizxon o`z harbiy kuchlarini isloh qilib, davlati sarhadlarini kengaytirish harakatini boshladi. U 1209 yilda tang`utlarni, 1211 yilda uyg`urlarni, 1215 yilda esa shimoliy Xitoyni poytaxt Chjundu (Pekin) shahri bilan birgalikda o`ziga tobe qilib oldi. Shu tariqa XIII asr wninchi yillari oxiriga kelib Sharqda ikkita yirik davlat – Xorazmshoh – Anushteginlar va Chingizxon davlatlari mavjud bolib, ular Ortasida urush bo`lishi muqarrar edi. Chunonchi, 1215 yildagi Dashti Qipchoq yurishida Xorazmshoh mug`ullarning Joji boshchiligidagi harbiy qo`shiniga duch keladi (hoz. Qozog`istonning To`rg`ay viloyati chollarida). G`arbga chekingan dushmanlari

markitlar ustidan g`alaba qozongan mug`ullar Xorazmshohning 60 ming kishilik qo`shini bilan bir kun jang qildilar. Bu jang borasida Chingizxondan hech qanday ko`rsatma olmagan Jojixon ertasiga chekinishga majbur bo`ladi.

1215-1218 yillar oralig`ida Xorazmshoh va Chingizxon ortasida bir necha marta elchilar almashinadi. Rashiddin ma`lumotlariga ko`ra, Chingizxon 1218 yil Xorazmshohga yuborgan nomasida uni "o`z o`g`illari qatorida ko`rishini" ma`lum qiladi. Sharq diplomatiyasiyada bu qaramlikni bildirishini Sulton Muhammad yaxshi anglagan edi. Undan tashqari 1218 yilgi Chingizxon tomonidan Xorazmga yuborilgan 450 kishilik elchilar guruhidagi 100ga yaqin savdogarlarga josuslik vazifasi ham topshirilgan edi. Shu bois bu karvon O`tror shahrida talon-taroj qilinib, elchilar o`ldiradi.

Bu voqeadan so`ng har ikkala tomon ham urushga tayyorgarlik ko`ra boshlaydi, An-Nasaviy ma`lumotlariga ko`ra,Chingizxon bilan bo`ladigan jang munosabati bilan Urganchda chaqirilgan mashvaratda Sulton Muhammad ortaga tashlagan qator takliflarni inobatga olmadi. Chunonchi, to`ng`ich og`li Jaloliddinning, Xo`jand hokimi Temur Malik singari sarkardalarning barcha harbiy kuchlarni asosiy nuqtalarga yoki bir erga to`plab, dushmanga zarba berish haqidagi maslahatlarga amal qilmadi va qo`shinlarni yirik shaharlarga bolib tashladi.

Chingizxon 1219 yilda o`z o`g`illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan Xorazmshohlar davlati ustiga yurish boshladi. Bu kuchlar O`sha yili yozni İrtish daryosi boyiga o`tkazib, sentyabr oyida chegaradan o`tadi. Chegaradan o`tgan Chingizxon o`z qo`shini bilan janubiy qozoq cho`llarining Sirdaryoga tutashgan joyidagi O`tror shahri yaqiniga to`plab uni to`rt qismga bo`ladi. Chig`atoy bilan Oqtoy qo`shinning bir qismi bilan O`trorni qamal qilib egallash uchun qoldiradi. İkkinchi qism esa Joji boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Borchilig`kent, Sig`noq shaharlarini bosib olish uchun yuboriladi. Uchinchi qismga Uloq nuyon va Suketu Cherbu bosh bolib O`trordan janubga, Xwjand va Banokatni egallash topshiriladi. Chingizxonning o`zi bosh bo`lgan asosiy tortinchi qism yirik shaharlar-Samarqand va Buxoroni egallash uchun ywl oladi.

Bu yurishlar natijasida 1219 yilda O`tror, Jand, Yangikent, Borchilig`kent, 1220

yilda Xwjand, Buxoro, Samarqand, 1221 yilda Termiz va Urganch shaharlari mug`ullar tomonidan bosib olinadi. Manbalarda "Jahon sultonlari poytaxti" va "İnsoniyat buyuk farzandlari beshigi" nomini olgan Urganch, "Qubbatul İslom" nomini olgan Buxoro, "Sayqali rwyi zamin" deb atalgan Samarqand kabi shaharlar talon-taroj qilindi. Ba`zi shaharlar, masalan, O`tror, Sig`noq, Borchilig`kent kabilar uzoq vaqtlargacha dashtu-biyobonlarga aylanib qoldi. Shu davrda yashagan arab tarixchisi ibn al-Asirjug`ul (1160-1244 yy.) mug`ul bochqini dahshatlarini shunday ta`riflagan: "Ular (mug`ullar) hech kimga shafqat qilmadilar, aksincha, xotinlar, bolalar, erkaklarni wldirdilar, homilador xotinlarning qorinlarini yorib, tug`ilmagan gwdaklarni nobud qildilar... Bu musibat twlqinlari turli tomonlarga tarqaldi va uning fojeasi umumiy bolib qoldi hamda u shamol bulutlarni turli tomonga haydagani kabi butun viloyatlarga yoyildi. Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib Turkistondagi Qashg`ar va Balasag`un kabi viloyatlarni vayron etib, qirg`in qilib, talon-taroj qilib egalladi. Tatarlar hech qaysi shaharlarni omon qoldirmadilar, ketayotib hamma erni vayron etdilar. Ular nimaniki yonidan o`tgan bolsalar, o`zlariga yoqmagan barcha narsalarga ot qwydilar".

Shunday qilib talon-tarojlik urushlari natijasida XIII asr 20-yillari ortalariga kelib Chingizxon Sharqda Shimoliy Xitoydan G`arbda Amudaryogacha bo`lgan hududlarda o`z hokimiyatini wrnatishga muvaffaq bo`ldi.

## 1.3. Jaloliddin manguberdi mohir sarkarda va vatan qahramoni

Jaloliddin Manguberdi-ona yurt himoyachisi, jasur sarkarda va davlat arbobi, xalqimizning Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Amir Temur singari tarixda o`chmas iz qoldirgan milliy qahramonidir

**İslom Karimov**

Tariximizdagi ulug` zotlardan biri mug`ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan, Vatan ozodligi ywlida jon fido qilgan Jaloliddin Manguberdidir. Orta asr musulmon mualliflari, jumladan uning vaziri va mirzasi ham bo`lgan an-Nasaviy uni Mankburni, (ya`ni mank belgi, xol degan ma`noda, xoldor burunli degan ma`noni anglatgan) nomi bilan atashgan.

Jaloliddin Manguberdi (Mankburni) xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni qaror toptirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 1998 yil 24-sentyabrda 408-sonli maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq buyuk sarkardaning tavallud twyi keng miqyosda nishonlanishi qayd qilib wtildi. Jaloliddin Manguberdi faoliyati, mug`ul bosqini xususidagi qimmatli ma`lumotlar asosan an-Nasaviyning «Siyrat as sulton Jaloliddin Mankburni» (Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati) asarida uchraydi. Shuningdek, İbn al-Asir Otamalik Juvayniy, Rashididdin kabi Orta asr musulmon tarixchilari asarlarida ham shu davrga oid qator muhim ma`lumotlar keltiriladi. Mazkur davr bwyicha XX asrdagi eng qimmatli ma`lumotlar Z.M.Buniyodovning «Xorazmshoh – Anushtegeniylar davlati» kitobida qayd etiladi.

Jaloliddin og`ir bir paytda Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mug`ullar tomonidan istilo etilgan, imperiya qo`shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik ywliga, qolgani o`z joni-mulkini asrash ywliga tushgan, sulton mamlakatni o`z holiga tashlab qwygan, o`zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo`ldi. Jaloliddin shunday bir og`ir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib,

mug`ullarga qarshi 11 yil kurash olib bordi. 14 marotaba mug`ullarga qarshi ot surib, uning 13 tasida g`oliblikni qo`lga kiritishga muvaffaq bo`ldi. Mug`ullar bosqini arafasida Jaloliddin garchi katta o`g`il bolsada, buvisi Turkon-xotun tomonidan hokimiyatdan chetlatilgan bolib, taxt vorisi etib Turkon-xotun urug`idan bolmish boshqa bir shahzoda Qutbiddin O`zloqshoh valiahd deb e`lon qilingan edi.

G`azna, Bomiyon, Al-g`ur, Bost, Takinobod, Zamin-Davora va Hindiston bilan chegaradosh erlar esa Jaloliddinga mulk etib berilgan edi. Garchi Jaloliddin buvisining izmi bilan markazdan chetlatilgan bolsa-da, lekin sulton unga alohida muhabbat bilan qarar, uning jasurligini qadrlar va uni o`zidan uzoqlashib ketmasligini hohlar edi. Shuning uchun ham unga vazir etib taniqli davlat amaldori Shams-al Mulk Shahobiddin Alp al-Xaraviyni, noib (o`rinbosar) etib esa sarkarda Ko`zbar Malikni tayinlaydi. Muhammad Xorazmshoh plevrit (wpkaga suv yig`ilish) kasali bilan og`rib taxminan 1220 yilning oxirlarida (hijriy 617 y.) quvg`inlikda Kaspiy dengizidagi Ashuradi orolida vafot etadi. Wlimi oldidan sulton Jaloliddinni taxt vorisi deb e`lon qilib, sultonlik ba`zi rutbalarini unga topshiradi. Jaloliddin o`z inilari O`zloqshoh va Oqshohlar bilan otasini dafn etgach, 70 ta kishisi bilan twg`ri Urganchga keladi. Tez orada unga Xwjand hokimi Temur Malik va boshqa erksevar kishilar kelib qwshiladilar. Xalq Jaloliddin Manguberdini shodu-xurramlik va katta umid bilan kwtib oladi.

Lekin inisi O`zloqshoh va uning tarafdorlari unga qarshi fitna tayyorlayotganidan xabar topgach, bu alfozda mug`ullarga qarshi kurashib bwlmasligini tushungan Jaloliddin 300 ta kishisi bilan yashirincha Xorazmni tark etadi. Jaloliddin 16 kun ichida Xorazmdan Xuroson erlaridagi Niso qwrg`oni atrofiga etib keladi. Chingizxon sulton og`illarining Xorazmga qaytganliklaridan xabar topgach agarda ular Xurosonga chekinmoqchi bolsalar, ularga qarshi chiqadi degan maqsadda o`z qo`shinidan Xurosonning har eriga pistirmalar qo`yadi. Jaloliddin Niso yaqinida o`zining 300 ta askarlari bilan mug`ullarning 700 kishilik otryadini zarbaga uchratadi. Mug`ullar batamom mag`lub etiladi.

Bu vaqtda Jaloliddinning ukalari O`zloqshoh va Oqshohlar sarosimaga tushib, nima qilishlarini bilmay, Jaloliddin ketidan ular ham Xurosonga ketishadi. Mug`ullarning kichik otryadi ustidan g`alaba qozonib, bu g`alabaga juda katta e`tibor berib yuborishadi. Shundan so`ng ayshi-ishratga berilib, Xurosonning Xabo`shan shahri yaqinida mug`ullarga qarshi navbatdagi kurashda qo`lga tushib, qatl etiladilar. Mug`ullar qatl etilgan shahzodalarning kallalarini namoyishkorona tarzda birmuncha vaqt Xurosonda olib yurishadi. Jaloliddinning yana bir inisi Rukniddin G`ursanjiy (manbalar unga «aql-zakovat va korkamlikda tengi yoq» deb ta`rif berishgan) Eronning Ustunavand qal`asida 6 oy mug`ullarga qarshi kurash olib borib, mardonavor tarzda halok bo`ladi. Jaloliddin esa bu vaqtda Nishopurga etib keladi. Bir oy davomida mug`ullarga qarshi kurashish maqsadida barcha amir, sarkardalarga qo`shin yig`ish xususida murojaat qiladi. Mug`ullar uning ushbu faoliyatidan xabardor bo`lganliklarini bilgach, Zavzon (Nishopur va Hirot oralig`ida) tumanidagi Al-Qohira qal`asiga kelib wrnashadi. Afsuski, bu vaqtda mahalliy noib hokimlar uning atrofida jipslasha ololmaydilar. Hali etarli kuchga ega bwlmagan Jaloliddin qal`ada uzoq turish xavfli ekanligini tushunib, G`azna tomon ywl oladi.

Chingizxon esa bu vaqtda ulkan qo`shin bilan Xurosonga izma-iz kelayotgan edi. Jaloliddin G`aznaga etmasdan yaqin orada Hirot hokimi hamda qayinotasi bwlmish Amin Malik bilan uchrashadi va ular birgalikda Qandahor qal`asini qamal qilayotgan mug`ullar ustiga yurish qiladilar. Jaloliddin bu kurashda harbiy ilm tarixida ilk bora “piyoda yoyandozlar”ni mug`ullarning otliq askarlariga qarshi qo`yadi. İnglizlar keyinchalik bu harbiy usulga yuqori baho berib, o`zlarining Kress yonidagi mashhur janglarda undan foydalanishadi. Uch kunlik jangdan so`ng mug`ullar mag`lub etilib Jaloliddin g`olib bo`ladi va u G`azna tomon ywl oladi.

U 1221 yilning fevralida G`aznaga kirib keladi. Manbalarning qayd etilishicha, xalq Jaloliddinni juda katta tantana bilan kutib oladi. Shahar xuddi xayit bayramidek shodu-hurramlikka twladi. G`aznada Jaloliddin xizmatiga Sayfiddin Og`roq al-Xalajiy, Balx hokimi A`zam Malik, afg`on qabilalari

sardori Muzaffar Malik va qarluqlar rahbari al-Hasan qarluq o`z qo`shinlari bilan qoshiladilar. Jami qo`shinning soni tarixchilarning xabariga ko`ra 90-130 ming kishi atrofida bo`lgan. Chingizxon Jaloliddinning kuch-qudratini oshib borayotgani va mug`ullar undan Qandahorda zarbaga uchraganligidan g`azablanib, nwyon Shiki Xutuxu boshchiligidagi qo`shinni uning ustiga yuboradi. U 1221 yilning kuzida Jaloliddin erlariga yaqinlashib keladi.

Jaloliddin bir hamladayoq mug`ullarni zarbaga uchratishga muvaffaq bo`ladi. Bu jangda mug`ullarning 1000 dan oshiq kishisi halok bo`ladi. Ko`plab tarixchilar jumladan, ibn al-Asir, Juvayniy, Rashididdin bu jangga yuqori baho bergan edilar. Jaloliddinning mug`ullarga qarshi muhim janglaridan biri 1221 yilning ko`zida shimoliy Afg`onistonning Lagar daryosi bwyidagi Parvona dashti yaqinida bolib o`tadi. Birlashgan qo`shinga shaxsan Jaloliddinning o`zi lashkarboshilik qilib, wng qanotga Amin Malik, chap qanotga Sayfiddin Wg`roq boshchilik qilishadi. Mug`ullar jon-jahdlari bilan kurashga kiradilar. Hatto Shiki Xutuxuning buyrug`i bilan Jaloliddin qo`shiniga xavf tug`dirish maqsadida har bir mug`ul askari orqasiga tulup o`tkazib ham qwyishadi. Parvona jangi mug`ullarning mutlaq mag`lubiyati bilan tugab Shiki Xutuxu qolgan qutgan qo`shini bilan Chingizxon huzuriga bazwr qochishga ulguradi.

Parvona yaqinidagi jang Movarounnahr va Xuroson ahli uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo`ldi. Shu paytgacha mug`ullarning ilohiy, engilmas kuch-qudratga egaliklari xususidagi gap so`zlarga, afsonalarga chek qwyildi. Jaloliddinning g`alabasidan Movarounnahr va Xuroson xalqlarining ruhi ko`tarildi, g`alaba ta`sirida Saraxs, Marv, Hirot va boshqa Xuroson shaharlarida mug`ullarga qarshi xalq isyonlari boshlanib ketdi. Buxoroda bosh ko`targan aholi esa mug`ullarni shahardan siqib chiqarishga muvaffaq bo`ldi. Chingizxon Jaloliddinning kuchayib borishi, uning xalq ommasi tomonidan qwllab-quvvatlanilishi mug`ullar bosib olgan erlar uchun qanchalik xavf tug`dirishini yaxshi anglab etgan edi. Shu sababdan ham shaxsan o`zi Jaloliddinni qanday qilib bwlmasin mag`lub etish maqsadida shitob bilan katta qo`shinga bosh bolib, janub tomon yol oldi.

Jaloliddin qo`shini Parvona jangidan so`ng katta wljani kiritgan edi. Ushbu wljaning taqsimlanishi vaqtida Jaloliddinning ikki sarkardasi Amin Malik va Sayfiddin Wg`roq Ortasida ixtilof chiqadi. İxtilof natijasida Sayfiddin Wg`roq va undan keyin boshqalar ham qo`shindan ajrab chiqib ketadilar. Jaloliddinning qo`shini kamayib, u nihoyatda og`ir bir ahvolda qoladi. Jaloliddinning uni tark etgan sarkardalarga qayta ittifoq tuzish, dushmanga qarshi birgalikda kurash olib borish twg`risidagi murojaati zoe ketdi. Jaloliddin ichak og`rig`i kasaliga duchor bolib turgan paytida mug`ullarning ilg`or guruhi Gardeega (G`aznadan 50 km. sharqda joylashgan shahar) wrnashganligidan xabardor bo`ladi. Jaloliddin xastaligiga qaramasdan Gardezdagi mug`ul askarlariga twsatdan zarba berib, ularni mag`lubiyatga uchratadi. U Chingizxonga qarshi ozchilik qo`shin bilan kurasha olmasligini anglab, Sind (Hind) daryosi bwyiga chekinishga qaror qiladi.

Jaloliddinni qanday qilib bwlmasin mag`lub etish va uni qo`lga tushirish ilinjida bo`lgan Chingizxon uni izma-iz ta`qib etib keladi. Jaloliddinni ta`qib etib kelayotgan mug`ullarga ayniqsa Bamiyon qal`asi qattiq qarshilik ko`rsatdi. Bamiyon qamali vaqtida Chig`atoyning wg`li, Chingizxonning suyukli nabirasi Mutulk halok bo`ladi. Bundan darg`azab bo`lgan Chingizxon qal`adan bironta wlja, bironta odamni asirlikka olmay barcha qal`a ahlini qirib tashlashni buyuradi. Er bilan yakson qilingan sobiq Bamiyon qal`asi keyinchalik mug`ullar tomonidan Mwbaliq (ya`ni ahmoqona shahar) nomini oladi.

Nihoyat 1221 yilning 25 noyabri, payshanba kuni (hijriy 618 yil shavval oyining sakkizinchi kuni) Sind daryosi bwyida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang boshlandi. Bir qator orta asr musulmon tarixchilarining ta`kidlashlaricha, bunday qonli, keskin va dahshatli jang tarixda ro`y bermagan ekan. Jaloliddin va uning qo`shini misli kwrilmagan darajada jasorat va bahodirlik namunalarini ko`rsatdilar. Faqat uchinchi kunga kelib, Chingizxon qo`shini ustunlikka erisha boshladi. Chingizxon qanday qilib bwlmasin Jaloliddinni tiriklayin qo`lga olishga buyruq beradi. Jaloliddin esa uni qo`lga olishga intilayotgan mug`ul qo`shini qwrshovini shaxsiy bahodirligi bilan yorib

chiqib, Sind daryosi boyiga etib kelishga muvaffaq bo`ladi. Daryo boyida onasi Oychechak va haramdagi boshqa ayollar uni kutib turishar edi. Shundoq ham bu jangdan ruhiy va jismonan ezilgan Jaloliddinga ular "... bizni o`ldiring va mash`um asirlikdan qutqaring" deya murojaat qilishadi. Jaloliddin barcha haram ayollarini suvga chwktirishga ko`rsatma berishdan boshqa iloji qolmaydi. O`zi esa oti bilan suvga sakrab, daryoning narigi beti-Hindiston tomonga suzib o`tadi.

Jaloliddinning har qanday vaziyatda ham o`zini yo`qotmasligi, uning jasorati va mardligiga Chingizxon ham tan beradi. Tarixchilardan Juvayniy, Rashididdin va boshqalarning yozishlariga qaraganda Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolib Chingizxon o`z og`illariga qarata "Otaning faqat shunday o`g`li bo`lishi lozim. U olovli jang maydonidan o`zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg`og`iga chiqdimi, undan hali ulug` ishlar va qiyomatli isyonlar keladi!",-dedi va uning orqasida ta`qib etishni ta`qiqladi.

Rashididdinning yozishiga ko`ra, Jaloliddin daryodan taxminan 120 ta tirik qolgan kishilari bilan Hindiston qirg`og`ida uchrashadi. Jaloliddin ham tirik qolganlar ham ma`naviy-ruhiy ham og`ir janglardan jismoniy ezilgan holda murakkab bir ahvolda qolishgan edi. Bu vaqtda Shatradagi mahalliy hind rojalaridan biri 40.000 chog`li otryadi bilan daryoning bu betiga suzib o`tgan xorazmliklarni qirib tashlash uchun etib keladi. Faqatgina Jaloliddinning tengsiz bahodirligi va qahramonona hatti-harakati tufayli roja o`ldirilib, qo`shin orqaga chekinadi. Bu jangdan xorazmshoh askarlarining ruhi ham ko`tarilib, tez orada Jaloliddin o`z atrofiga 3 ming kishilik askarni yig`ishga muvaffaq bo`ladi. Og`ir vaziyatlarda ham o`zini yoqotmasdan, qaddi bukilmagan sarkarda Hindistonga o`tgach, Sind daryosi bo`yidagi erlarni ishg`ol qila boshlaydi. Tez orada Jaloliddinning hokimiyatini Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish (1211-1236) va Sind, Uchcha, Mwlton, Lohur va Peshovar hokimi bo`lmish Nosiriddin Qubacha (1205-1227) ham tan oladilar.

Hindistonda Jaloliddin 1223 yilning oxirlarigacha bolib, xorazmshohlarning azaliy mulki bo`lgan İroq va Eronni o`z izmiga kiritish maqsadida yolga otlanadi. O`z o`rniga noib etib, taniqli sarkarda Jahon polvon

o`zbekni qoldirib ketadi. Jahon polvon to 1229 yilgacha Hindiston mulklarini boshqarib, so`ngra Jaloliddin huzuriga İroqqa qarab ketadi va uning harbiy yurishlarida elkadosh bolib xizmat qiladi. 1224 yilning boshida Jaloliddin Kirmonga kelib, Kirmon sultoni bo`lmish ukasi G`iyosiddindan yordam uchun 4000 kishilik qo`shin oladi. U o`zining asosiy maqsadi mug`ul istilochilariga qarshi kurashib, mustaqil davlat yalovini tiklash ekanligini bildiradi.

Jaloliddin mug`ullarga qarshi birgalikda kurash olib borish maqsadida ukasi G`iyosiddin Pirshoh, Bag`dod xalifalari az-Zohir (1225-1226), so`ngra al-Muntansir (1226-1242), Gurjiston malikasi Rusudana va boshqalarga murojaat qiladi. Lekin mug`ullar qasosi, qolaversa Jaloliddinning hokimiyati kuchayib ketishidan chwchigan ko`pchilik musulmon hokim, hukmdorlari u bilan ittifoq tuzishni hohlamaydilar. Bag`dod xalifaligi, ismoiliylar hokimi Muhammad III (1221-1255)lar esa mug`ullar bilan yaqinlashishga, Jaloliddinga qarshi ochiqdan-ochiq kurashishga bel bog`laydilar. Malika Rusudanani va uning vaziri Avak bilan o`zaro ittifoq xususidagi takliflari zoe ketgandan so`ng 1226 yil fevralida sarkarda Gurjistonga yurish qiladi. Gurjiston qattiq jang ila egallanib, bu erda ko`plab mash`um voqealar bolib o`tadi. Bosh ko`targan Gurjiston ikkinchi marotaba 1228 yil egallangach, bu erlar qattiq talon-taroj qilinadi.

Bir vaqtning o`zida Jaloliddin Manguberdi Kirmonda unga qarshi bosh ko`targan xiyonatkor Barak Hojibga, ismoiliylarga ham qarshi kurash olib borishga twg`ri keladi. Shuningdek, ahamiyatli hisoblangan Ararat tog`liqlari etaklarida joylashgan Xilat qal`asi ham Jaloliddinga uzoq vaqt mobaynida qarshilik ko`rsatadi. 1227 yili oxirlarida mug`ullarning Eronga kirib kelishi niyatlari borligini bilgan Jaloliddin ularga qarshi qat`iy jangga kirishga tayyorgarlik ko`radi. Mug`ullarning O`sha yili yuborilgan 2000 kishilik avangardi tor-mor etilib, ulardan 400 tasi İsfahonda namoyishkorona tarzda qatl etiladi. 1228 yil 25 avgustida Eronni zabt etish uchun kelgan Taynal noyon boshchiligidagi mug`ul istilochilari bilan İsfahon yaqinida hal qiluvchi jang bolib o`tdi. Garchi jang vaqtida ukasi G`iyosiddin xoinlik qilib, o`z qo`shini

bilan Luristonga chekingan bolsa-da, Jaloliddin qat`iy ravishda bu holatga e`tibor qilmay kurash olib boradi.

Jaloliddin murakkab va ziddiyatli davrda yashadi. Shubhasiz u o`z davrining farzandi edi. U qo`shinlarining ko`plab harbiy yurishlar vaqtida talonchilik, zoravonlik qilishlariga gohida ko`z yumdi, xonavayronchilik keltiruvchi ishlarga bosh qo`shdi. Bu esa Eron, Ozarbayjon, İroq, Gurjiston ahlida salbiy fikrlarning ko`payishiga, noroziliklarning kuchayishiga ham olib kelgan. Lekin nima bo`lganda ham Jaloliddin Manguberdi o`zining asosiy maqsadi mug`ul istilochilariga qarshi kurashish ekanligini yodida saqladi.

1230 yil 10 avgustida Kuniya sultoni, Xims hokimi, Halab hokimi, Mayafiriqin hokimi va Baynas hokimlarining birlashgan ittifoqi Jaloliddinni mag`lub etadi. İsmoiliylar esa butkul xoinlik yolini tutib Jaloliddinning mag`lubiyati tog`risida mug`ullarga yashirin noma ham yuboradilar. Jaloliddin mag`lubiyatidan foydalangan mug`ullar uning Ozarbayjonning Mug`on, Shirkabutdagi qo`shin yig`ishi mumkin bo`lgan joylariga qoqqisdan zarba berishadi. 1231 yil bahorida u Ganjaga kelib, barcha gina-kudratlarini unutib, yana mug`ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga murojaat etdi. Lekin uning taklifi javobsiz qolib ketdi. Shunda Suriyadagi Amida qal`asi hokimi uni o`z oldiga chorlaydi. U İroqqa borib yana qo`shin toplamoqchi bo`ladi.

Amida yo`li yaqinida unga to`satdan mug`ullar hujum qilib qolishadi (1231 yil avgust boshi). Uni 15 chog`li mug`ul navkarlari ta`qib etishadi. Jaloliddin o`z sheriklaridan ajrab, Mayafariqin (Hozirgi Turkiyaning Silvan viloyati) yaqinida Ayn-ad-dar qishlog`iga keladi. Ushbu tog`liq qishloqda u kurdlar qo`liga tushadi. O`zini sulton deb tanishtirgandan so`ng uni kurdlar o`ldirishga jazm etmaydilar. Uni tegishli joyga etkazib qo`yish evaziga mukofot va`da qiladi. Lekin kurdlar rahbari xonadonidan joy olgan, horib-tolgan Jaloliddinni, boshqa bir kurd kishisi ulgan inisi xuni evaziga o`ldiradi. Bu voqea taxminan 1231 yilning avgust oyi 17-20 sanalari oralig`ida roy beradi.

Musulmon tarixchilari o`z asarlarida hamisha uni mard va jasur sarkarda

sifatida ta`riflashgan edi. Jaloliddin Manguberdini shaxsan bilgan an-Nasaviy u to`g`risida shunday ta`rif bergan edi:

“U turkiy bolib, qora mag`iz yuzli, burni oldida qora xoli bor Orta bo`yli yigit edi. Fors tilida ham bemalol so`zlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo`q, sherlar ichida arslon, otliqlar ichida eng jasuri edi... qisqa so`zli, hech qachon so`kinmagan, yomon so`zlarni o`ziga ep ko`rmagan, juda jiddiy, atrofdagilar oldida o`zini sipo tutar, hech qachon kulmas, faqatgina tabassum qilib qoyar edi xolos. U adolatni sevgan, lekin zamon zayli uni o`zgartirishga majbur qilgan. U o`z fuqarolarini dardini engillashtirishga harakat qilgan, shuni hohlagan, lekin tanazzul davri bo`lganligi bois ham zo`ravonlikka yo`l bergan. O`zini ulug`lashlarini istamagan. Bachkana ta`riflarni yoqtirmagan, faqat sulton deya murojaat qilishlarini so`ragan. Uning farmonlarida yolg`iz so`z: ”Yordam yolg`iz Ollohdandir!” degan shior bo`lgan.»

1999 yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligining keng nishonlanishi, uning vatani Xorazmda unga mahobatli haykal wrnatilinishi, yurtboshimiz ta`kidlaganidek “g`anim oldida bosh egmagan, tiz chwkmagan. Vatan deya halok bo`lgan” milliy qahramonimiega xalqimizning ehtiromi, muhabbati, ajdodlar xotirasini muqaddas saqlashi ramzi bolib qoldi.

## 1.4. Anushtakin xorazmshohlar davlatida madaniy-iqtisodiy hayot. Ilm-fan, ta`lim. Me`morchilik va hunarmandchilik.

**İqtisodiy hayot va hunarmandchilik.** Xorazm o`zining qulayli strategik va jug`rofiy mavqei hamda qadimdan rivojlangan voha bo`lganligidan, u Markaziy Osiyo mintaqasida turli davrlarda kechgan muhim tarixiy jarayonlarda alohida o`rin tutib kelgan va qo`shni xududlarga ham o`zining muayyan ta`sirini o`tkazib borgan.

Bunda Xorazm shaharlarining jug`rofiy nuqtai nazardan Buyuk ipak ywli chorrahasida joylashganligi, iqtisodiy sohada tovar-pul munosabatlarining rivojlanishini o`z navbatida Olkada ziroatchilik, chorvachilik va hunarmandchilik sohalari taraqqiyotiga turtki bo`lgan faktor bolib hisoblanadi. IX-X asrlardan Buyuk ipak ywliga tutash aholi manzilgohlarida, sarhad xududlarda obod va kwrkam shaharlar vujudga keldi. Jumladan, X asr boshida vohada 10 ga yaqin shaharlar mavjud bolsa, XI asr Ortalariga kelib bunday shaharlar soni 40 taga etdi.

Ayniqsa, XI–XIII asr boshlarida Xorazm vohasida– markazlashgan davlatining vujudga kelishi, Anushtegin Xorazmshohlar tomonidan hunarmandchilik markazlari bo`lgan Movarouannahr, Mang`ishloq, Sirdaryo boylari, Eron, Ozarbayjon, İroq kabi boy hududlarning mamlakat tarkibiga qwshib olinishi nafaqat siyosiy barqororlikning ta`minlanishiga, balki hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojiga ham katta ta`sir ko`rsatgan jarayon hisoblanadi. Anushtegin Xorazmshohlar davlati tarkibiga kiritilgan 400 ga yaqin shaharlar va ko`plab davlatlarning o`zaro integratsiya jarayonlariga kirishishi, iqtisodiy hayotning faollashuviga va shaharlarning kengayishiga, savdo-sotiq va hunarmandchilik sohalarining taraqqiyotini ta`minovchi asosiy omillardan biri bo`ldi.

XI-XIII asrlar boshida iqtisodiy va madaniy hayot Xorazmning Kwhna - Urganch, Kot, Xiva, Xazarosp, Mizdakxon, Jampiqqal`a, Shexrlik, Shemaxaqal`a, Shoxsanam, Puljoy, Jigarband, Sadvar kabi yirik shaharlaridan

tashqari, Gavhora, Daryoliq, Chermenyap, Dawdan kabi Amudaryoning asosiy irmoqlari yoki kanallari boylaridagi qishloq xwjalik vohalari markazlarida ham taraqqiy qilgan. Bu davrda Xorazmdagi hunarmandchilik tarmoqlarining rivojlanishida sun`iy sug`orma dehqonchilik madaniyatining ham ta`siri kuchli bo`lgan. Vohada 1,8 mln. ga er maydoni sug`orma dehqonchilik bilan band bo`lgan[1]. Bu joylarda katta-kichik rabodlar, kwshk-qwrg`onlar qurish avjga chiqqan. O`sha davrda shaharda ham, qishloqlarda ham hunarmandchilik iqtisodiy hayotda katta o`rin tutgan.

Eng asosiysi, bu davrda Xorazmda Buyuk ipak ywli bwylab xalqaro savdoning rivojlanishi shaharlar va hunarmandchilik sohalarida ishlab chiqarishni rag`batlandirdi. Xorazm shaharlarida turli mamlakatlar hunarmandlari san`ati jam bo`ladi.

Ushbu fikrimizni Yoqut al-Hamaviyning Xorazm haqidagi maxsus maqolasidagi ma`lumotlar tasdiqlaydi: « … Men bu erga 616 yili (1219-1220 yy.) borgan edim. Xorazmning deyarli hamma shaharlarida mol-tovar va dwkon rastalarga boy bozorlar bor, bozori bwlmagan qishloq kamdan – kamdir»[2]. O`sha davr mualliflardan al-Kurashi (XIII asr boshi) Xorazm shaharlarida taxminan 50 ga yaqin ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari mavjudligini, Zakariya al-Kazvini (XIII asr) esa, «Gurganch (Kwhna-Urganch-B.T.Q) aholisi mohir hunarmandlar, ayniqsa, temirchilik, duradgorlik va boshqa sohalar o`z zamonasida yuksak rivojlangan» deb ko`rsatadi[3]. Bu davrda yashab ijod qilgan xorazmlik olim Az-Zamaxshariyning (1075-1144 yy.) «Muqaddimat ul-adab» asarida oltunchi (zargar), qulfchi (qulfsoz), qulachi (miskar) kabi ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari mavjudligini ta`kidlaydi.

Xorazmda mwg`illar istilosiga qadar (XIII asr boshi) va undan keyingi davrda ham qulf, oltin va kumush suvi yuritilgan egar-jabduq, jugan-suvliq kabi

---

[1] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиши тарихи. –Тошкент. 1957. – Б. 81-83.
[2] Иброҳимов Н. Ибн Батута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. –Тошкент. –Шарқ, 1993.-Б.20-21; МИТТ. –М.-Л., 1939. Т. I – С. 419.
[3] Буниятов З.М. Государство Хоразмшахов – Ануштегинидов. -М.: Наука, 1986. -С. 102. 228.

metall buyumlar tashqi savdoga chiqarilgan va yuksak baholangan[1].

Anushteginlar hukmronligi davrida Xorazmda wymakorlik badiiy hunarmandchiligi ham yuqori darajada taraqqiy qilgan. Mahalliy hunarmandlar nafaqat yog`ochga badiiy bezaklar tushirishgan, balki xorijdan keltiriladigan fil suyagi va eman daraxtidan badiiy wymakorlik mahsulotlarini yasashda ham juda mohir bo`lishgan[2]. O`sha davrda Xorazmda aholi uy-joylari, kwshk va chorbog`lar qurilishida yog`ochdan keng foydalanilgan. Ma`muriy va ijtimoiy ahamiyatga ega me`moriy inshootlar asosan paxsa va g`ishtdan qurilgan. Bunday imoratlarda yog`och asosan dekorativ maqsadlarda foydalanilgan. Ularga yog`ochdan darvoza, eshik, ustunlar tayyorlangan va ularga yog`och wymakorligi asosida turli xil naqsh va bezaklar berilgan. Ularning ajoyib namunalari XII– XIII asrlarga oid Qavatqal`a, Xiva, Darg`on yodgorliklaridagi tadqiqotlarda aniqlangan. Jumladan, Qavatqal`a yodgorligidagi Juma masjid zalidan yarim kuygan tort qirrali twsin, yog`och eshik qoldiqlari topilgan. Xiva shahri Juma masjididagi wndan ortiq yog`och ustunlar XII– XIII asrlarga oid wymakorlik uslubida bezatilgan. Xorazmda Anushtegin Xorazmshohlardan songgi davrda ham saroylarning ichki qismini bezatishda, gumbaz va ravoqlar qurilishida yog`och moslamalar keng ishlatilgan. Bu twg`risida sayoh İbn Battutaning “Sayohatnoma” asarida Xorazm amiri Qutlug` Temur qabulxonasi quyidagicha tavsiflanadi: “...keng qabulxona va undagi xonalarining aksariyati yog`ochdan ishlangan. Keyin esa gumbazi wymakor uslubida yog`ochdan ishlangan kichikroq xonaga kirdik”[3].

Xorazmning Orta asrlardagi hunarmandchilik sohalari taraqqiyoti va savdo-iqtisodiy aloqalari twg`risidagi tadqiqotlar A.Yu.Yakubovskiyning “Orta Osiyoning feodal jamiyati va uning X–XV asrlarda Sharqiy Evropa bilan savdo aloqalari” asarida ilk bor yozma manbalar asosida o`rganishga harakat qilgan. Uning ta`kidlashicha, Xorazmda hunarmandchilik sanoati rivojlangan, u asosan ko`chmanchi dasht aholisiga xizmat qilgan, dashtliklar uchun paxta gazlamalari,

---

[1] Якубовский А.Ю. Феодальное общество Средней Азий и его торговля с Восточной Европой // Материалы по истории Узбекской, Таджикской, Туркменской ССР. -М-Л.: 1932.-С.3.
[2] Буниятов З.М. Государство Хоразмшахов – Ануштегинидов. -М.: Наука, 1986. -С. 102. 228.
[3] Иброҳимов Н. Ибн Батута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. –Тошкент. –Шарқ, 1993.-Б.60.

umumiy aholi uchun esa kulolchilik mahsulotlarini etkazib bergan[1].

Vohada O`sha davrda taraqqiy qilgan hunarmandchilik sohalaridan yana biri to`qimachilik bo`lgan. Arab-forsi mualliflari asarlarida yozilishicha, X- XIII asrlarda Xorazmdan tashqi savdoga paxta (karbos), jun matolari, qimmatbaho gilamlar, «arzanj» -deb nomlangan paxta gazlamasi chiqarilgan [9,180,216][2]. Anushtegin Xorazmshohlar hukmdorligi davrida Xorazmda twqimachilik hunarmandchiligi yanada yuksaladi. Bu davrga kelib Xorazmda paxta va jun gazlamalaridan tashqari, ipak matolarini ham ishlab chiqarish ywlga qwyiladi. XIII asr mualliflari Shihobuddin Muhammad an-Nisoviy, Zakariya al-Kazvini, Juvayniy, Rashiduddin ibn Fazlulloh ma`lumotlariga ko`ra, bu davrda Gurganj shahrida tabiiy ipak tayyorlovchi hunarmandchilik ustaxonalari faoliyat ko`rsatishgan. Ushbu ma`lumotlar twqimachilik va ipakchilik mahsulotlari yakka tartibdagi xonadonlardan tashqari, ixtisoslashgan hunarmandchilik ustaxonalarida ham ishlab chiqarish ywlga qwyilganligidan guvohlik beradi.

Yoqut al-Hamaviy (XIII asr boshi) Xorazm haqida shunday deb yozadi: «….Olkaning rustoqlarida parvarishlanmagan, noobod joyni topish qiyin. Yashil daraxtzorlar, ayniqsa g`ujumu tut ko`p, chunki ular (aholi) qurilish yog`ochlariga muhtoj, tut bargi esa ipak qurtiga emdir. ….» [3]. Bu esa O`sha davrda tabiiy ipak tayyorlash ywlga qwyilganligini ko`rsatadi.

Bundan tashqari, Zakariya al-Kazvini (XIII asr) «Gurganj ayollari mohir kashta tikuvchilar» deya madh etsa, XIV-XV asrlar muallifi Abdurashid al Bakuviy Gurganjning mohir zardo`zlari haqida «Gurganj ayollari ajoyib gazlamalarni igna bilan zar-iplarda tikishadi» deya yuqoridagi ma`lumotlarni yana bir karra tasdiqlaydi [4]. Ushbu ma`lumotlar Xorazmda amaliy san`atining qadimiy turi zardo`zlikning yuksak rivojlanganligini ko`rsatadi. Zardo`zlar oltin ip bilan kashtalangan kiyimlar, qaltacha, har xil do`ppi va ro`mollar, zar berilgan poyabzal, g`ilof, hamyon, ot yopig`i kabi kashta buyumlarini yaratganlar.

---

[1] Якубовский А.Ю. Феодальное общество Средней Азии и его торговля с Восточной Европой в X-XV вв. // МИУТТ. –Л.: АН СССР, 1933. – С. 3-5.

[2] Материалы по истории туркмен и Турмении. Т. I. -Москва-Ленинград, 1939.

[3] Материалы по истории туркмен и Турмении. Т. I. -Москва-Ленинград, 1939. –С.419.

[4] Буниятов З.М. Государство Хоразмшахов – Ануштегинидов. -М.: Наука, 1986. -С. 102. 228.

Mirzo Ulug`bekning (XV asr) «Tarixi arba` ulus» asaridagi ma`lumotlar mwg`illar bosqinchiligiga qadar (1221 yil) Xorazmda, jumladan Urganchda hunarmandchilik sohalarda yuksak taraqqiy qilganligini yana bir karra tasdiqlaydi. Unda yozilishicha, «mwg`il qo`shini Urganchni etti oylik qamaldan so`ng istilo qilgandan keyin 100 ming odamni wldirgan, 100 ming ahli hunar va ahli san`atni Mwg`iliston tarafga haydab ketganlar»[1].

Demak, ushbu raqamlar Xorazmning mwg`illar istilosi arafasida Sharqdagi yirik madaniy va iqtisodiy vohalaridan biri ekanligini yaqqol e`tirof etadi. Mwg`illar tomonidan Xorazmli hunarmandlarning aksariyati mwg`il dashtlari, Volga boylarida yangi shaharlar qurilishi va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida qul sifatida olib ketilgan.

**Ma`rifatparvarlik va ta`lim.** Xorazm vohasi xalqlari qadimdan diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal egallashgan ma`rifatli kishilar bo`lishgan. Bu haqida Abu Rayhon Beruniy: «xorazmliklar osmon sirlarini arablarga qaraganda ancha yaxshi bilganlar» deb yozadi[2]. Beruniy bir qator osmon yulduzlarining xorazmcha nomlarini va Xorazm taqvimi (kalendar) twg`risida batafsil ma`lumotlar beradi. Qoyqirilganqal`a yodgorligidagi arxeologik tadqiqotlar va topilmalar antik davrdayoq Xorazm va Turoni zaminning boshqa xududlarida rasadxonalar bo`lganligi va u erda muttasil astronomik kuzatishlar olib borilganligini twla tasdiqlaydi.

Anushtakinlar sulolasi hukmdorligi davrida Xorazmdagi qadimiy boy madaniy qadriyatlar islom an`analari bilan bog`liq bo`lgan holda shakllandi va rivoj topdi. İslom faqat din emas, balki yangi ma`naviy ywnalish sifatida butun madaniy jarayonga, barcha musulmon mamlakatlari orasida ijtimoiy-madaniy, ma`rifiy aloqalarning kuchayishiga ham katta ta`sir ko`rsatdi. Bu davr ma`naviyatida hurfikrlik, har qanday bilim, ilm-fanga hurmat, diniy oqimlar erkinligi ustuvorlik qildi. Diniy va dunyoviy ilmlar o`zaro uzviy bog`lik holda rivoj topdi. Xorazmning Urganch, Kot, Xiva, Mizdakxon, Xozorasp kabi

---

[1] Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар.-Тошкент, Ўқитувчи, 1994.-Б.329.
[2] Булгаков П.Г.Жизнь и труды Беруни. –Ташкент. Фан, 1972.-С.20.

qadimiy shaharlari Orta Osiyodagi madaniy va iqtisodiy hayot taraqqiy qilgan shaharlardan biriga aylandi. Davlat boshqaruvi, qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun ilm-fan va islom ilohiyatshunosligini rivojlantirish zaruriyati tug`ildi. O`sha davrda ko`plab shaharlarda kutubxonalar tashkil etildi va bozorlarda kitob savdosi yolga qo`yildi. Deyarli har bir qishloq o`zining «kuttob» («maktab»)iga ega bo`lgan bolsa, yirik shaharlarda ko`plab madrasalar bunyod etildi. Madrasalarda kotib, fikhshunos (İslom huquqshunosligi), qozi-kalon, diniy mutaxassislar, davlat xizmati uchun amaldorlar tayyorlandi. Ushbu maktab va madrasalarda diniy bilimlardan tashqari, dunyoviy fanlar ham keng turda wqitilgan.

Ayniqsa, IX-X asrlarda Xorazmning shuhrati butun mag`rubu mashriqqa yoyildi. Chunki Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ko`plab ilm-fan va ma`naviyatning yirik nomoyandalari hayoti va ijodi ushbu davrga twg`ri keladi. Ushbu allomalarning olamshumul faoliyatlari va boshqa qator ijobiy omillar Xorazmning qo`shni Sharq xalqlari bilan ilmiy madaniy aloqalarining rivojiga, g`oyaviy hamkorlikiga katta ijobiy ta`sir ko`rsatdi.

Ma`lumki, Sharqdagi ilk akademiya («Donishmandlar uyi»)ni Bag`dodda xalifa Ma`mun (813 yil) tashkil etgan bolsa, ikkinchi akademiya Xorazmda shoh Ma`mun (1004 y.) tomonidan tashkil etildi. İkkala akademiyada ham faoliyat olib borgan mutaffakkir ajdodlarimizning ilm-fan sohasidagi tengsiz kashfiyotlari, ma`rifatparvarlik ishlari va jahon madaniyatiga qwshgan hissalari buyuk ma`naviy jasoratning yuksak timsolidir.

Xorazm Ma`mun akademiyasi faoliyatini oladigan bolsak, bu mo`tabar ilmiy maskanda Sharq va G`arbdan kelgan, turli millat va dinga mansub bo`lgan olimlar faoliyat ko`rsatgan bolsa-da, uning negizini Abu Nasr ibn İroq, Abu Rayhon Beruniy va İbn Sino, Mahmud Xwjandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi mana shu bizning mintaqamizda tug`ilib, kamol topgan etuk allomalar tashkil etgani insonda

g`urur va iftixor bag`ishlaydi»[1].

Xorazm ahlining tabiati, ma`naviyati, vatanparvarlik tuyg`ulari, xulq-atvori, odobi, ularning nihoyatda ma`rifatparvarligi, gapga chechanligi, qizg`in bahs va munozaralar bilan fikr-mulohaza yuritishi, g`aribu musofirlarga nisbatan g`amxwrligi haqida ko`plab ma`lumotlar Orta asr arab-fors sayohlari asarlarida berilgan.

Geograf olim va sayoh Muqaddasiy (X asr) so`zlariga qaraganda, Xorazm aholisi aql zakovatli, fikh ilmini egallagan ma`rifatli kishilar edilar. Xalifalik shaharlarida fikh, adabiyot hamda Qur`onni o`rganish sohasida shogirdi bwlmagan xorazmlik imom (bu erda yirik olim ma`nosida) kamdan-kam uchraydi[2]. Shundan keyin Al-Muqaddasiy yana yozadi: «.... yaxshi va twg`ri qiroat (qur`on wqish) qobiliyati, wtkir aqlu idrok ato qilgan»[3].

Mazkur ma`lumotlar orta asr Xorazm vohasi xalqlarining ilm-fanga ishtiyoqmand, yuksak ma`naviyatli va ma`rifatparvar insonlar bo`lganligidan guvohlik beradi.

Anushtakin Xorazmshohlar hukmronligi davrida (XI-XIII asr boshi) Xorazmda iqtisodiy yuksalish bilan bir qatorda ta`lim, ilm-fan, adabiyot, san`at kabi ma`rifatparvarlik sohalari g`oyatda taraqqiy qilgan edi. Bunda hukmdorlarning ta`lim va ilm-fan ahliga katta e`tibori va ularga homiylik ko`rsatganliklari ijobiy ahamiyatga ega bo`lgan. Ulardan Xorazmshoh Alouddin Takash (1172-1200 yy.) o`zi ham yaxshigina adib bolib, arab va fors tillarida ijod qilgan, Xorazmda hanafiya mazhabi tariqatida mashhur madrasa qurdirgan.

O`sha davrda madrasalarda mudarrislik (oqituvchilik) qilish faxriy faoliyat turi hisoblangan, ba`zan yuqori martabali amaldorlar nafaqaga chiqqandan so`ng ushbu ish bilan shug`ullangan. Shuning uchun ham, Anushtakinlar sulolasi hukmronligi davrida madrasalarga mudarris (wqituvchi) va imomlarni tayinlash davlat ahamiyatiga molik ish bolib, sulton yoki uning joylardagi noiblari tomonidan maxsus bekitilgan. Masalan, Xorazmshoh İl-Arslon farmoniga (1162

---

[1] Каримов И. А. Юксак маънавият енгилмас куч. –Тошкент. Маънавият. 2008. –Б.161.
[2] Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. –Тошкент. Ўқитувчи, 1994. –Б. 157.
[3] Иброҳимов Н. Ибн Батута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати.-Тошкент. 1993. –Б.19.

yil) ko`ra, hoqon Abul Muzaffar Tamg`ach Bug`roxon İbrohim ibn Sulaymonga Turkiston viloyatidagi madrasalarga mudarrislar tayinlash huquqi va boshqa vazifalar yuklatiladi. Xorazmshoh Otsizning mudarris tayinlash haqidagi farmonida: Kimningdir otasi Marv madrasalari birida mudarrislik qilgan va uning oylasi bilan yaqin aloqada bo`lgan. Otasi vafotidan so`ng u saroyga kelgan va buyuk majlisda ishtirok etgan. Hozir o`z otasi maktabiga tadris (ish boshqaruvchi) etib bekitildi. Madrasaga talluuqli vaqf mulki uning tasarrufida va wquv yurtidagi ehtiyojlarga muvofiq, u vaqf daromatlarini imoratlarni ta`mirlashga, erga ishlov berish kabi maqsadli ishlarga sarflashi lozim. Ushbu xarajatlar madrasa toliblari va fikhshunoslar (islom hukuqshunoslari) ishtirokidagi majlisda muhokama qilinishi va muqaddas ishlarga sarflanishi zarur deyilgan.

Xorazmshoh Takash??(1172-1200 yy.) tomonidan imom Badr ad-Din nomiga qwyidagi mazmundagi farmon chiqargan: «Saroydagi munosib xizmati uchun Badr ad-Din katta viloyatda mudarris, imom va xatib tayinlash huquqini qo`lga kiritadi. Badr ad-Din o`z vazifalarini qur`onga munosib turda bajarishi, hadis, sunnit payg`ambarlari va imomlari ta`limotlariga amal qilishi lozim. U har juma va bayramlarda odamlarning olloh, payg`ambar, xalifa va xorazmshohga shukronalik ywlidagi ibodatini (namoz oqishini) ta`minlashi, diniy qurilishlarni ta`mirlashi va ularning saqlanishiga e`tibor qaratishi, odamlarga o`z so`zi va axloqi ila namuna bo`lishi, vaqf mulki daromatlarini ko`paytirishi va ularga loyaqatli boshqaruvchilarni tayinlashi zarur » deya ko`rsatilgan.

Xorazmshohlar davrida ilm-fan va adabiyot taraqqiy qilganligini, ilm toliblari, shu jumladan kambag`al fuqoralarni bilimli va ma`rifatli qilish maqsadida ular o`z davlatining turli chekka viloyatlarida ko`plab madrasalar, masjidlar, kutubxonalar (dor-ul-kutub)lar qurilgan.

Yangi madrasalar qurish davlat ahamiyatiga molik ishlardan biri hisoblangan. Sulton tomonidan qurdiriladigan yangi madrasalar qurilishiga rahbarlik etish obrwli ruhoniylarga topshirilgan. Masalan, Xurosondagi madrasa qurilishiga muftiy imom Aziz ad-Din Ali al-Balxiyga, Nishopur madrasasi

muftiy va mudarris imom Faxr ad-Din Abu Sabit Abd al-Aziz ibn al-Jobbor al-Kufiyga topshirilgan.

Sulton Jalolliddin otasi Alouiddin Muhammad xorazmshoh nomiga İsfahon shahrida shahrida madrasa qurdirish uchun unga 30 ming dinor bergan. Ushbu mablag`dan tashqari, İroqdan olinadigan soliqning bir qismi madrasa xarajatlari, qurilishni tez fursatda yakunlashga, shuningdek shamdon, ko`za va boshqada zaruriy jihozlarini oltindan qoyish uchun ajratildi. O`sha davridagi mashhur ma`rifatparvarlardan Mukarrab ad-Din Muhammad ibn İbrohim al-Pahlovon al-Xorazmiy (1228 yil vafot etgan) qurilish ishlarini boshlash uchun Xorazmdan İsfaxonga yuboriladi. Jalolliddin Manguberdining shaxsiy kotibi an-Nasaviy yozishicha, u tort oydan so`ng madrasa devorlarining odam bwyli qad qwtarganligini ko`radi[1].

O`sha davrda erga va mulkga egalik qilishning vaqf shakli keng tarqalgan. Vaqf mulki butunlay madrasa, masjid va xanoqohlar ixtiyorida bo`lgan. Ba`zan, ta`lim-tarbiya maskanlariga butun qishloq hadya tariqasida in`om etilgan. Masalan, Xorazmdagi Xatun Baxa madrasasiga Sakan Axashk (?) qishlog`i vaqf mulki tarzida berilgan[2]. Xorazmshoh Alouddin Takashning vaziri Nasir ad-Dinga berilgan farmonida yozilishicha, ushbu madrasaning sobiq mutavvalisi (ish boshqaruvchisi) vaqf mulklarini boshqarishga loyoqatsiz bo`lganligidan, vaqf mulkining zarar kwrishi va inqirozga yuz tutishiga olib kelgan. Vazir Nasir ad-Din mudarrislar (wqituvchilar) va talabalarning iqtisodiy qiyinchiliklarsiz va be`molol wqishlarini ta`minlash maqsadida keltirilgan zarar o`rni qoplangan va yangi mutavvali tayinlangan. Jumladan, O`sha davrda Buxoro viloyatida kambag`allar uchun «Dor ul-fuqaro» nomli kutubxona bo`lgan, unda nodir qwlyozmalar saqlangan. Hattoki, madrasalarda wquvchi ilmi toliblar vaqf erlari hisobidan muayyan mablag` va oziq-ovqat bilan ta`minlangan.

Anushtakinlar sulolasi hukmdorlari ma`rifatparvarlik ishlariga nafaqat

---

[1] Ан-Насави Мухаммад. Жизнеописание султана Джалал ад-Дина Манкбурны. Пер. с араб. З.М. Бунятова, -Баку, 1973. –С.241.

[2] Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231).-М., Наука, 1986.-С.126.

homiylik qilishgan, balki davlat siyosati darajasida olib borishgan. Ma`rifatparvarlik ishlari Xorazmda va undan chekka viloyatlarda keng turda olib borilgan. Bu davrda nafaqat hukmdorlar, balki yirik amaldorlar va badavlat kishilar ham ilm-ma`rifat tarqatish ywlida jonbozlik ko`rsatganlar[1]. Sulton Muhammad xorazmshoh davridagi davlat arboblaridan biri Shixab ad-Din Abu ibn İmron al-Xivakiy o`zining qattiyatligi va ma`rifatparvarligi bilan davlatda shuhrat qozongan. U fikhshunos va muftiy bo`lish bilan birga, aqli, donoligi va uddaburonligi bilan hukmdor fikrini tez ilg`ay olardi. Buni shundan ham ko`rishimiz mumkinki, hukmdor, vazirlar va yuqori martabali amirlar uning eshigi yonida turgan paytda, u odatdagidek imomlarga dars berardi. U Xorazmdagi beshta madrasada dars bergan, qachonki darslar tugagandan so`ng hoji sulton bilan turli xil ishlar bwyicha suhbatlashardi. Shixab ad-Din ma`rifatparvarlik ishlariga ham rahnomalik qilgan. U Urganchda o`z hisobidan kutubxona qurdiradiki, manbalarda yozilishicha bunaqa kutubxona undan oldin ham, undan keyin ham bwlmagan[2].

Anushtakin Xorazmshohlar mahalliy olimu-fuzolardan tashqari, xorijiy ellardan kelgan va shu erda ijod qilayotgan ko`plab olim va shoirlarga homiylik qilgan. O`sha davrda xorazmshohlar saroyida diniy va dunyoviy bilimlar bilan shug`ullanuvchi 50 dan ortiq olimu-ulomalar nomlari va ilmiy ishlari yozma manbalarda ma`lumotlar keltirilgan[3]. Ulardan aksariyati xorazmiy taxallusi bilan atalgan va xorazmlik bo`lgan.

Ajdodlarimizning bunday yuksak ma`naviyatli va ma`rifatparvar, vatanparvar, mehnatsevar va xush xulqlik kabi ulug` fazilatlar egasi bo`lishida Najmiddin Kubro kabi kabi tariqat pirlarining tarbiyasi, wgit nasihatlari benihoyat kattadir. XII asrda Xorazmda Najmiddin Kubro (1146-1221 yy.) boshchiligidagi tasavvufning kubroviya oqimi shakllanib, Movarounnahr, Xuroson, Hindiston va boshqa musulmon Sharqi davlatlari orasida keng tarqalgan edi. Bu tariqat ta`limoti hadis va shariatga asoslangan bolib, ayniqsa

[1] Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231).-М., Наука, 1986.-С.126-127.
[2] Ан-Насави Мухаммад. Жизнеописание султана Джалал ад-Дина Манкбурны. Пер. с араб. З.М. Бунятова, -Баку, 1973. –С.93-94.
[3] Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231).-М., Наука, 1986.-С.120-125.

unda komil insonni tarbiyalash bu tariqatning asosiy vazifalaridan biri bo`lgan.

**Me`morchilik.** Manbalarda IX–XIII asrlarda Xorazmda shaharlar soni tez ko`payishidan tashqari, ularda betakror va go`zal imoratlar, keng kwchalar, juda ko`p inshootlari va xush manzara joylar mavjudligi twg`risida yozishadi. Jumladan, al-Muqaddasiy (X asr) Urganch shahrida al-Ma`mun davrida qurdirilgan saroy va uning chiroyli arklari haqida ma`lumotlar beradi»[1]. Yoqut al-Hamaviy XIII asr boshidagi Urganchni shunday tasvirlaydi: «Urganch Jayxun sohilida joylashgan katta shahar. Men bu erga 616 yili (1219-1220 yy.) borgan edim, hech qaerda bunday gavjum va yashnagan Olkani kwrmaganman. Xorazmning deyarli hamma shaharlarida mol-tovar va dwkon rastalarga boy bozorlar bor, bozori bwlmagan qishloq kamdan – kamdir»[2].

Bu davrda Xorazmda aholi uy-joylari, kwshk va chorbog`lar qurilishida yog`ochdan keng foydalanilgan bolsada, ma`muriy va ijtimoiy ahamiyatga ega me`moriy inshootlar asosan paxsa va g`ishtdan qurilgan. Bunday imoratlarda yog`och asosan dekorativ maqsadlarda foydalanilgan. Ularga yog`ochdan darvoza, eshik, ustunlar tayyorlangan va ularga yog`och wymakorligi asosida turli xil naqsh va bezaklar berilgan. Ularning ajoyib namunalari XII–XIV asrlarga oid Qavatqal`a, Xiva, Darg`on yodgorliklaridagi tadqiqotlarda aniqlangan. Jumladan, Qavatqal`a yodgorligidagi Juma masjid zalidan yarim kuygan tort qirrali twsin, yog`och eshik qoldiqlari topilgan[3]. Xiva shahri Juma masjididagi wndan ortiq yog`och ustunlar XII–XIV asrlarga oid o`ymakorlik uslubida bezatilgan[4].

Xorazm Buyuk Xorazmshoxlar-Anushtaginlar davrida (1097-1231) nafaqat Markaziy Osiyoda, Sharqning boshqada davlat, elatlarida mashhur bulgan uziga xos tsivilizatsiya, urbanizatsiya va madaniyat markazlariga ega boldi.

Buyuk xorazmshohlar davrida yangidan-yangi mahalliy urbanizatsiya

[1] Материалы по истории туркмен и Туркмении . -М.-Л., 1939. Т.I.-С.187-188.
[2] Иброҳимов Н. Ибн Батута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. –Тошкент. –Шарқ, 1993.-Б.20-21; МИТТ. –М.-Л., 1939. Т. I – С. 419.
[3] Вактурская Н.Н., Вишневская О.А. Памятники Хорезма эпохи Великих Хорезмшахов (XII-начало XIII вв.) // МХЭ. – М., 1959. Вып. 1. – С. 152, 162.
[4] Булатова В.А., Ноткин И.И. Архитектурные памятники Хивы. – Ташкент, 1972. – С. 73.

o`choqlari, shaharlar, qishloqlar, monumental qurilishlar, ma`muriy, jamoat binolari, masjid, madrasa va maqbara, xanoqoh kabi ziyoratgohlar ko`plab qurildi. Shular qatorida masjid, madrasa va maqbara, xanoqohlar alohida o`rin egallaydi.

Xorazmning Anushtakinlar davriga oid yodgorliklardan biri Shohsanam qal`adir. Yodgorlikda katta jome` masjid (17 x 10,5 m) o`rganilgan. Masjid ayvoni o`z davrining mohir ustalari tomonidan yasalgan tort burchak va olti qirrali ustunlar bilan bezatilgan. Masjid mehrobi ko`p qirrali aylana tokcha bolib, uning aylana sathi ganchdan wymakorlik uslubida arab yozuvi («gullangan kufi») va geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Xorazmshohlar davriga tegishli monumental masjid joylari biegacha Qavat qal`a, Mizdakxon, Bug`roxon yodgorliklarida aniqlangan va bizning kunimiegacha saqlanib qolgan.

XI-XIII asrlarda Xorazm markazi Gurganjda me`moriy qurilish ishlari olib borilgan. Shular qatorida Jome` masjidi xarobalari aniqlandi. Umuman, qadimiy minora yonida mog`ullar bosqiniga qadar qurilgan ustunli inshoot Gurganjdagi katta masjidlardan biri bo`lgan.

Orta asrlarda islom sharqi davlatlarida me`morchilik an`analarida Jome` masjidlari shaharsozlik elementlarining biri bo`lgan va ularni qurish shahar aholisining ma`naviy va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog`liqdir.

## II-BOB: «ANUSHTAKIN XORAZMSHOHLAR DAVLATI (XI-XIII ASR BOSHI)» MAVZUSINI O`RGANISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

### 1.1. «O'zbekiston tarixi fanini o`rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

Hozirgi kunda ta`lim jaroyonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo`lishining sababalaridan biri, shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchi-talablarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rganilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganishlariga, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Shuning uchun ta`lim muassasalarida zamonaviy o`qitish metodlari, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir.[1]

Hozirgi zamon keskin globallashuv jarayonlarida barcha mamlakatlarning dunyodagi mavqei uning intellektual salohiyati bilan belgilanmoqda. Davlatimizda bugungi kunda intellektual salohiyatni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirish ta’lim-tarbiyanig asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu borada qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Davlat ta’lim standartlari” ni sohasiga amalda hayotga tadbiq etish va ularning bajarishini ta`minlash barcha fanlarning, jumladan tarix faning eng asosiy ustivor yo‘nalishi hisoblanadi.

Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovatsiya so'zlari o'rtasida farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so'nggi yutuqlar, bilimlar, usullar hisoblanadi.

---

[1] Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. /Учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. М.: Издательский центр “Академия”, 2000.

Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo'llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi. Tarix fanlarini oqitish jaroyonlarida qollaniladigan innovatsion texnologiyalar amalda oquvchi yoshlar va talabalarning faol hayotiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan bo`lishi zarur. Bunda o`qituvchilarga o'quv jarayonidagi yangi shakldagi interaktiv usullardan foydalanish qulay hisoblanadi.

Davlatimiz ta`lim muassasalarida talabalar bilimini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadida ta'lim berishning interfaol usulidan kengroq foydalanish tavsiya etilmoqda. Bugungi kun ta`liminig asosiy maqsadlaridan biri talabalarni ko'proq mustaqil o'qishga jalb qilish hisoblanadi. Buning uchun fanga oid adabiyolar royxati va ularning electron nusqalari, ma'ruza matnlari, oraliq va yakuniy nazorat savollari toplami oldindan berilishi zarur.

Eng asosiysi bugungi kunda tarix fanlarini o'qitishda quyidagi talim texnologiyalarini o'qitish zarur.

* muammoli o'qitish;
* tanqidiy fikrlashish rivojlantiruvchi texnologiyalar;
* rivojlantiruvchi talim texnologiyalar;
* modulli texnologiyalar;
* hamkorlik texnologiyalari;
* o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi;

Mazkur texnologiyalarda dars o'zaro hamkorlikda, munozara tarzida o'tkaziladi (ko'proq seminar mashg'ulotlari). Dars so'ngida o'qituvchi talabalar e'tiboridan chetda qolgan jihatlarni ularga etkazib, yakuniy xulosa qiladi va talablarni baholaydi.

Bundan tashqari, tarix fanlariini o`qitish jaroyonida mavzuni mustahkam o'zlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish talab etiladi. Jumladan, internet saytlaridan, xususan, kursga va fanga tegishli bo'lgan http://www.e-tarix.uz; http://www.histori.ru; http://www.viki.uz; http://www.gov.uz; http://www.edu.uz; http://www.ziyonet.uz; www. kultura.uz; www. arxeologiya.uz;

www.wikipedia. org; www. raskopki. narod.ru; www. archaelogy. ru kabi saytlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarix fanlarini o‘qitish jarayonida ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o‘qish, darslarni savol-javob, munozara tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va mul`timedia vositalaridan foydalanish, talabalarni undaydigan, o‘ylantiradigan tarixiy mavzulardagi muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, talabalar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

Interfaol metodlar deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

*Tarix fanlarida qollaniladigan ommaviy interfaol ta’lim texnologiyalari:*

*1. Interfaol metodlar*: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blits-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat”.

*2. Strategiyalar:* “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor”.

*3. Grafik organayzerlar:* “Baliq skeleti”, “BBB”, “Kontseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, Qanday?”.

O'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma,

jadval, grafiklar majmui grafik organayzerlarni tashkil etadi. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor (to'ldirilgan) holda qo'llasa vosita vazifasini, talabalarning mashg`ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashni rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, tarix fanida interfaol ta’lim texnologiyalari ta’lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Interfaol ta’limning eng muhim tarkibiy elementi bo‘lgan interfaol metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim maqsadlarni amalga oshirishda ma’lum darajada samaradorlikka erishishni ta’minlaydi.

### 2.2. Anushtakin xorazmshohlar davlati (XI-XIII asr boshi) mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyadan foydalanish.

2.1. **Mavzu: «Xorazm davlati va uning yuksalishi»** mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish

**Darsning maqsadlari:**

***1.Ta'limiy maqsad:*** O'quvchilarga Xorazm davlatining davlatchilik tariximizdagi o`rni va ahamiyati haqida umumiy ma'lumot va tushuncha berish.

***2.Tarbiyaviy maqsad:*** O'quvchilarni Vatanga, fanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

***3.Rivojlantiruvchi maqsad:*** O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish.

**Dars turi:** Ochiq dars.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar: „***Aqliy hujum metodi*", «Davra suhbati metodi», "Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi" interfaol metodlaridan samarali foydalanish mumkin.

**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** Xarita, darslik, plakat, rasmlar.

**Kompetensiya:** O'z fikrini og'zaki va yozma turda aniq, tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqiy to'g'ri qo'ya olish va javob berish.

*Milliy va umumiy madaniy kompetensiya:*

Umumiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni hurmat qilish.

*Fanga tegishli kompetensiya:*

- Tarixiy voqealarni tushunish va uni mantiqiy ketma-ketlikda tushintira olish kopmetensiyasi;
- Tarixiy shaxslar haqida ma'lumot bera olish, tarixiy sanalarda yuz bergan voqealar haqida ma'lumot bera olish.

| № | Dars taqsimoti | Daqiqa |
|---|---|---|
| **1** | Darsni qilish jarayoni | 2 daqiqa |
| **2** | O'tilgan va uyga berilgan mavzuni so'rash, takrorlash jarayoni | 10 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu mazmunini tushuntirish jarayoni | 18 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash, amaliy va mustaqil | 10 daqiqa |

| | | |
|---|---|---|
| | ishlar bajarish jarayoni | |
| **5** | Darsga yakun yasash, baholash metodlari | 3 daqiqa |
| **6** | Uygа vazifa berish | 2 daqiqa |
| | Jami: | 45 daqiqa |

-




**D A R S N I N G  B O R I S H I:**

**I bosqich: Darsni tashkil qilish jarayoni:**

a) O'quvchilar bilan salomlashish.

b) Sinf xonasining darsga tayyorligini kuzatish.

s) O'quvchilar davomatini aniqlash

**II bosqich: O'tilgan va uyga berilgan mavzuni so'rash, takrorlash jarayoni:**

**Uyga berilgan vazifa „ *Aqliy hujum metodi*" metodi orqali aniqlanadi:**

***„ AQLIY HUJUM METODI" METODI UCHUN MAVZULAR.***

1. Xorazm davlati va uning yuksalishi
2. Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari keskinlashuvi.
3. Anushtakin xorazmshohlar davlati inqirozi.
4. Jaloliddin Manguberdi Vatan qahramoni.
5. Anushtakin xorazmshohlar davlatida madaniy hayot
6. Anushtakin xorazmshohlar davlatida iqtisodiy hayot

**„ *Aqliy hujum metodi*” metodini o`tkazish qoiydalari va jarayoni.**

Aqliy hujum, o‘qitishda fikrlash va ijod qilishni rag‘batlantiradigan usul bo‘lib, guruh diskussiyalari bilan birgalikda qo‘llaniladi. Aqliy hujumning asosiy maqsadi alohida bir mavzuga doir fikr va g‘oyalarni muqobil qarorlarni generatsiyalashdan iborat. Ushbu g‘oyalar to‘plami mavzuning kirish qismini tashkil etishi yoki guruhda disskussiyani tug‘dirishi mumkin. Aqliy hujumning ishtirokchilardan muhokama qilinayotgan mavzuga doir ma’lum bilimlarga ega bo‘lishlikni talab etadi.

**Aqliy hujum** – biror masalani hal qilishga doir imkon qadar ko‘proq javob va echimlarni sanab o‘tishga qaratilgan usuldir.

Bunday usul:

- o‘quv jarayoniga barcha ishtirokchilarni jalb etish, barcha javoblarni inobatga olish;
- qiyin masalalarni echish;
- guruh kvalifikatsiyasini va bilimini baholash;
- agarda vaqt etarli bo‘lmasa, qarorni tez qabul qilishga imkon yaratadi.

**O‘qituvchining vazifasi:**

- guruhga masala berish yoki muhokama uchun savol qo‘yish;
- yozib borish uchun kotibni tayinlash (zaruriyat tug‘ilganda);
- asosiy qoidalarni birin-ketin aytish (masalan, tanqid qilmaslik, barcha fikrlar qabul qilinadi);
- birinchi takliflarni kiritish (zaruriyat tug‘ilganda);
- individual izohlarga baho bermaslik;
- vaqtni belgilab olish (reglament);
- guruhga javob chegaralarini kengaytirishga ko‘maklashish;
- taklif etilayotgan javoblarni baholash mezonlarini tanlash.

**O‘quvchining roli:**

- ijodiy yondashuvni qo‘llash;
- hamma fikrlarni bayon etish;

- guruhning boshqa a’zolari tomonidan kiritilgan takliflar xususida o‘ylamasdan fikr bildirishdan o‘zini saqlash;

- aqliy hujumdan keyin taklif etilgan echimlarni baholash;

- axborotni qo‘llashning eng qulay usulini belgilab olish.

***Quyidagi tavsiyalar aqliy hujumni o‘tkazishni osonlashtiradi:***

- **Asosiy qoidalarni belgilab oling.**

Misol: *“Aqliy hujum davomida biz ikkita asosiy qoidaga rioya qilamiz. Hamma aytilgan fikrlar inobatga olinadi, bir o‘quvchi ularni flipkartaga yozib boradi. Avval biz hech qaysi g‘oyani muhokama yoki tanqid qilmaymiz. Takliflar ro‘yxatini yozib olganimizdan so‘ng esa, har bir taklif yoki g‘oyani muhokama qilamiz. Savollar bormi? Agar yo‘q bo‘lsa...”*

- **Mavzu yoki muammoni e’lon qiling.**

Misol: “Keyingi daqiqalarda biz odatdagi qoidalarga ko‘ra aqliy hujumni o‘tkazamiz. Bugungi mavzuning nomi: **«Xorazm davlati va uning yuksalishi»**. Ushbu mavzuga dahldor bo‘lgan biror fikrni aytishingizni istardim. Keyinchalik muhokama qilishimiz uchun ishtirokchi ularni doskaga yozib boradi. Kim birinchi bo‘lishni hohlaydi. Marhamat, Anora...”

- **Fikrlar va takliflarni flipkarta yoki doskaga yozib boring.**

Bu takrorlashlarning oldini oladi, ishtirokchilar diqqatini mavzuda mujassamlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, har bir bandi bo‘yicha muhokama jarayonida yozuvning borligi foydalidir.

**- Ishtirokchilarni muhokamaga jalb eting va ijobiy baholash bilan mukofatlang.**

Ular ishtirokini rag‘batlantiring.

Vaqti-vaqti bilan yozib qo‘yilgan fikrlar va g‘oyalarni, qo‘shimcha fikrlarni taklif etishni rag‘batlantirish maqsadida **takrorlab boring.**

**- Aqliy hujumni aytilgan barcha takliflarni takrorlash bilan yakunlang.**

**III bosqich: Yangi mavzu mazmunini tushuntirish jarayoni:** 10 daqiqa



## Davra suhbati metodi.

**Davra suhbati -** ta'lim oluvchilar o'rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

"Davra suhbati" metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida o'qituvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu mavzu bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har

bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini qog'oega yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

**Davra suhbati metodining afzalliklari:**

- o'tilgan materialni yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchtlar o'zaro muloqotda bo'ladilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining ishtirok etish mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

**Davra suhbati metodining kamchiliklari:**

- ko'p vaqt talab etiladi;
- o'qituvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

**IV bosqich: Yangi mavzuni mustahkamlash, amaliy va mustaqil ishlar bajarish jarayoni:**

**«Xorazm davlati va uning yuksalishi » mavzusini o‘qitishda “Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi” interfaol metodidan ham samarali foydalanish mumkin.** Bu metodni olingan bilimlarni mustahkamlash jarayonida foydalanish yanada yaxshi natijalar beradi.

Masalan, “Xorazm davlati va uning yuksalishi” mavzusi bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazilayapti, deylik. Dastlab o‘qituvchi doskaga “Xorazm davlati va uning yuksalishi”ga oid sana va atamalarni, geografik nomlarni chalkashtirilgan holda yozib qo‘yadi. *So‘ngra, ulardan mazkur yozilgan ma`lumotlarning tog`ri notog`iliga qarab «+» va «-» belgilari qoyib chiqiladi* va bundan tashqari ularni tahlil qilib tarixiy voqiyalik haqida aytib berishadi.

| **Xorazm davlati tasarrufidagi geografik nomlarni** | | **Tarixiy shaxslar** | | **Etti yillik yurish** | |
|---|---|---|---|---|---|
| Sirdaryoning quyi oqimi | + | Ma`mun I | + | 1172 yil | + |
| Mang`ishloq viloyati | + | Anushtegin | + | 1097-1128 yillar | + |
| Misr | - | Qutbiddin Muhammad | + | 1193 yil | + |
| Xuroson | + | Xoji Barlos | - | 1117 yil | - |
| Volga boyi | - | Sulton Sanjar | + | 1196 yil | + |
| Marv | + | Aloviddin Otsiz | + | 1037 yil | - |
| Rus kniyazliklari | - | Sulton Sanjar | + | 1200-1221 yillar | + |
| Bag`dod xalifaligi | + | Turkon xotun | + | 1208 yil | - |
| Nishopur | + | Elarslon | + | 1212 yil | - |

**V bosqich: Darsga yakun yasash, baholash metodlari:**

Dars yakunlanadi va darsda faol qatnashgan o'quvchilar bilimi besh ballik tizimda baholanadi.

**VI bosqich: Uyga vazifa berish:**

Uyga vazifa o'tilgan mavzuni o'qib, mazmunini so'zlab berish, o'zlari yoqtirgan shahar haqida refarat yozish topshiriladi.

**Uyga vazifa uchun nazorat savollari**

1. X asrda Xorazm qaysi davlatga tobe viloyat hisoblanardi ? Somoniylar
2. X asr oxiri – XI asr boshlarida Xorazm davlati poytaxti qaysi shashsr edi ?
3. 1017 yilda Xorazmni kim bosib oladi ? Mahmud G`aznaviy
4. 1076 yilda Sulton Malikshoh kimni Xorazm hokimi etib tayinlaydi.?
5. Qutbiddin Muhammad qaysi shaharda ilm olgan? Marvda
6.«Dunyo va din qutbi, g`alabalar otasi Mo`minlar amiri-xalifaning yordamchisi» unvoniga ega bolgan Xorazm hukmdori ? Qutbiddin Muhammad
7. Qaysi hukmdor Xorazmning mustaqil davlat bo`lishi uchun asos yarata oldi.?

2.2. **Mavzu: «Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari keskinlashuvi. Anushtakin xorazmshohlar davlati inqirozi»** mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish

**Darsning maqsadlari:**

***1.Ta'limiy maqsad:*** O'quvchilarga Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari keskinlashuvi va uning salbiy oqibatlari haqida ma'lumot va tushuncha berish.

***2.Tarbiyaviy maqsad:*** O'quvchilarni tinchlik, ozodlik, tenglik, vatanvarvarlik va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

***3.Rivojlantiruvchi maqsad:*** O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish.

**Dars turi:** Ochiq dars.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar: „*Aqliy hujum metodi*", «klaster» texnikasi, "T" – sxema jadvali**".

**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** Xarita, darslik, plakat, rasmlar.

**Kompetensiya:** O'z fikrini og'zaki va yozma turda aniq , tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqiy to'g'ri qo'ya olish va javob berish.

*Milliy va umumiy madaniy kompetensiya:*

Umumiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni hurmat qilish.

Fanga tegishli kompetensiya:

Tarixiy voqealarni tushunish va uni mantiqiy ketma-ketlikda tushintira olish kopmetensiyasi;

Tarixiy shaxslar haqida ma'lumot bera olish, tarixiy sanalarda yuz bergan voqealar haqida ma'lumot bera olish.

| **№** | **Dars taqsimoti** | **Daqiqa** |
|---|---|---|
| **1** | Darsni tashkil qilish jarayoni | 2 daqiqa |
| **2** | O'tilgan va uyga berilgan mavzuni so'rash, takrorlash jarayoni | 10 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu mazmunini tushuntirish jarayoni | 18 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash, amaliy va mustaqil ishlar bajarish jarayoni | 10 daqiqa |
| **5** | Darsga yakun yasash, baholash metodlari | 3 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa berish | 2 daqiqa |
| | **Jami:** | **45 daqiqa** |

